



NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKUL'TETI

Nemis va fransuz tillari kafedrası

Jafaraliyev Abduvalining

5220100-filologiya (nemis tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish
uchun

"Chet tilni masofadan turib o'qitish" mavzuidagi

BITIRUV

MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

p.f.n., dot. S. Saidaliyev

Taqrizchilar:

kat . o'qit M.Tojixo'jayev

o'qituvchi

Chet tilni masofadan turib o'qitish

KIRISH

I BOB. CHET TIL O`QITISH METODIKASI TIL TA`LIMI NAZARIYASIDIR

1.1. Chet til o`qitish metodikasi til ta`limi nazariyasidir.

1.2. Chet til ta`limi va uning turlari.

1.3. Chet til ta`limida yechimini kutayotgan masalalar.

1.4. Xulosa

II BOB. CHET TILNI MASOFADAN TURIB O`QITISH TURLARI VA METODIKASI

2.1. Masofaviy ta`lim va uning mohiyati.

2.2. Masofaviy ta`limning ta`lim tizimida tutgan o`rni.

2.3. O'zbekistonda chet tillarni o'rganish muammolari va istiqbollari.

2.4. Xulosa.

UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va muammoning o'rganilganlik darajasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli asarida yoshlarga qarata shunday ibratomuz fikrlarni bildirgan edi:

... Kelajak avlod haqida qayg'urish sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarni, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod vatanda yashashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin xalqimizning o'z adabiyoti, madaniyati, san'ati va ma'naviyati tarixiga yangicha nazar bilan qarab, uni chin ma'noda avaylab – asrab, o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi. Endilikda ma'naviy boyliklarimizni o'zimiz yangidan tanib, idrok etibgina qolmay, xorijiy mamlakatlar adabiyotlaridagi tendensiyalarni ham kuzatib, ularni tahlil qilishga bilimimiz yetarli". Bu borada chet tillarini o'rganish va chet tili o'qitishda masofaviy ta'lim asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari zamonida chet tilni masofadan turib o'qitish muhim rol o'ynaydi va samarali natija beradi. Shu bilan birga mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan ham belgilanadi:

Birinchidan, mazkur mavzu bo'yicha garchi ma'lum o'quv qo'llanma va ilmiy ishlar qilingan bo'lsada, chet tilni masofadan turib o'qitishda yangicha usullar va texnologiyalarni nazariy jihatdan ilmiy asoslash va amaliy jihatdan tavsiyalar ishlab chiqish o'quvchilarga chet tilni yanada tushunarli qilib yetkazib berish, bir so'z bilan aytganda chet tilni masofadan turib o'qitishning o'rni, roli va ahamiyati borasida hozirgacha nufuzli ilmiy – pedagogik tatqiqot olib borilmagan;

Ikkinchidan, o'quvchilarga chet til darslarida yangi o'qitish uslubi va texnologiyalaridan yani maktab darslarini turli axborot texnologiyalari va masofaviy ta'limni boshqa vositalaridan foydalanish nazariy va eksperimental jihatdan puxta o'rganilmagan;

Uchinchidan, o'quvchilarni o'z kasblarini o'zlashtirishda chet tilni masofadan turib o'qitishning o'ziga xos o'rni, ixtisoslik fanlari bilan bog'liqligi BMI ning mavzusi bo'lmagan.

Yuqoridagilarning barchasi biz tanlab olgan mavzuning dolzarbligini belgilash uchun xizmat qiladi.

BMI ning maqsadi

O'rta maktab o'quvchilariga chet tillarini o'rgatishda chet tilni masofadan turib o'qitishning ahamiyati beqiyos ekanligini, masofadan turib o'qitish usullari chet tillarni o'rganishdagi o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishni nazariy asoslab berishda muhim ekanligi, o'quvchilarning xorijiy til bo'yicha tayyorgarligi sifatini ko'tarish va ularning xorijiy til bilan ishlash malakalari shakllanganligini nazorat qilish va baholash masalalarini hal qilishda masofaviy ta'limga oid nazariy bilimlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berish BMIning maqsadlaridan hisoblanadi.

Shuningdek ushbu Bitiruv malakaviy ishimizda darslik va qo'llanmalar yaratishda ma'lum tavsiyalar berishni rejalashtirilgan. Shu nuqtai nazardan BMI mavzusida quyidagi **maqsad va vazifalar** belgilangan:

- Umumiy o'rta maktablar, Akademik litsey va Kasb-hunar kollejlari ta'limi tizimida professor - o'qituvchilar uchun masofaviy ta'lim va uning usullari haqida ma'lumot berish va bu boradagi ko'nikmalarni shakllantirishning samarali usullarini ishlab chiqish;
- Turli xorijiy mamlakatlardagi chet tillarni o'qitishda masofaviy talimdan foydalanish haqida ma'lumotlar berish;
- Chet tillarni o'rganishning ilg'or pedagogik - psixologik mazmun-mohiyatini ochib berish;
- Jahon mamlakatlarida qo'llanayotgan ilg'or va zamonaviy, noan'aviy va usullar haqida batafsil ma'lumot berish;
- O'zbekistonda chet tillarni o'qitishning tarixi va bu borada qilingan tadqiqotlar haqida fikr bayon qilish.

BMI ning obyekti va tadqiqot usullari

O'quvchilarga chet tillarni o'rganishda chet til o'qitish metodlari, hususan masofadan turib o'qitish metodi, uni chet til ta'limidagi o'rnini va ahamiyatini belgilash tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

BMI ning predmeti

Olmon tilini o'qitish jarayonida masofadan turib o'qitish usullaridan foydalanish BMI predmeti bo'lib xizmat qildi.

BMI ning metodologik asosi va metodlari:

BMI da O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonun"ni, "Kadrlash tayyorlash milliy dasturi" pedagogika, psixologiya va o'quv predmetlari hususiy metodikalarda tan olingan metodlarning tadqiqot maqsadiga mos keluvchi jihatlaridan foydalanildi. Ta'lim – tarbiya jarayonini kuzatish, sohaviy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, so'rovlar o'tkazish, tajriba sinov metodlaridan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

O'qituvchilar chet tilni masofadan turib o'qitishning ilg'or metodlarini yaxshi o'zlashtirganliklari va shu metoddan samarali foydalana bilish mahorati muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu o'quvchilar til bilimlarini shakllanishi va malakalarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchilarning chet til o'qitish metodlari haqidagi bilim, ko'nikma va malakalari chet til darslariga tayyorgarlik ko'rish va ularni yaxshi tashkillash va olib borishga, o'quvchilarning o'zlashtirishlari hamda sohaviy qo'shimcha adabiyotlar o'qish jarayonida zarur va foydali ma'lumotlar olish hisobiga boyib boradi.

Chet tillarni o'rganish va o'rgatish metodlarni vaqti vaqti bilan almashtirib turish o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish, ularni har tomonlama rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Ishning ilmiy yangiligi:

Hozirgi kun sharoitida chet til ta'limini yangi zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'rganish va o'rgatishning, hususan masofaviy ta'limning nazariy asoslari o'rganib chiqildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, o'quvchilarning chet tillarni egallash jarayonida chet til o'qitish metodining o'rnini aniqlashga muvoffaq bo'lindi; o'quvchilarga chet tillarni o'rgatish samaradorligini oshirishning optimal usullari aniqlandi; o'quvchilarning chet til darslarida yangi metodlar haqida,

masofaviy ta'limning bilim va malakalarini rivojlantirishdagi o'рни va roli nazariy jihatdan asoslandi va amaliy tavsiyalar tarzida ishlab chiqildi.

BMI natijalarining joriy qilinishi:

BMI ning nazariy xulosalari va materiallaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, akademik litseylarda hamda mazkur o'quv yurtida tillar samaradorligini oshirish, shu bilan birga ta'lim jaroyoni uchun muhim bo'lgan o'quv dasturlari va darslik va qo'llanmalar yaratish bo'yicha tavsiyalar ko'lamini kengaytirishda foydalanish imkoniyati mavjud.

BMI ning tuzilishi va hajmi:

BMI kirish, asosiy qism, hulosasi va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib 14 kattalikda yozilgan 51 sahifali matndan iborat.

I.BOB CHET TIL O`QITISH METODIKASI TIL TA'LIMI NAZARIYASIDIR

Chet tillarini samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Til o'rgatish kishilik jamiyatida muhim sohalardan biri hisoblanadi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda chet tillarini o'rganish, ko'p tillilik ulkan ahamiyatga ega.

O'zbekiston respublikasi hududida tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. "Iqtidorli yoshlarimizning ko'pchiligi uch til egasidir". Ushbu tillar ta'lim nazariyasida maxsus nomlar bilan yuritiladi. Ona tili, ikkinchi til, va chet til.

Chet til – bu xorijiy mamlakatlar tili. Respublikamizda G'arbiy ovro'po tillari, ingliz, ispan, nemis, fransuz tillari va Sharq tillari, arab, turk, urdu, fors xitoy, hind kabilar o'qitilmoqda. Ta'lim muassasalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan.

Chet tili muallimi metodika fani yutuqlarini o'zlashtirishi orqali o'quvchining to'plagan til tajribasi meyorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi.

Hozirgi paytda chet tili o'qitish metodikasi, boshqa o'quv predmetlari singari, pedagogik fanlaridan biri ekanligiga hech kim shubxalanmaydi. G'arbda, hozirgi davrda ham, metodika fan emas, degan fikr juda keng tarqalgan. Masalan, Penlosh yomon va yaxshi metodistlar yo'q, yomon va yaxshi o'qituvchilar bor deb yozgan edi. P.Politser lingvistikaning tilni o'qitishga munosabati haqidagi maqolasida "chet tilini o'qitish metodikasi fan sifatida mavjudmi" degan savolga salbiy javob beradi.

Turli avtorlar metodikaning fan ekanligini aniqlab, uning mohiyatini turlicha bayon etadilar. Metodik va pedagogik adabiyotlarda uzoq vaqtlar davomida metodika amaliy tilshunoslik sifatida qarab kelingan.

Fan sifatida metodikaning xarakteriga doir turli nuqtai nazarlarning paydo bo'lishi bejiz emas. Gap shundaki, metodikaning tadqiq etish obyektni ilgari to'plangan materialga suyanib aniq belgilaydigan maxsus ishlar shu paytgacha mavjud emas.

Pedagogik o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi va ta'limining ijtimoiy jarayonini bir butun holda o'rganadi, metodika esa o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va o'qitish masalalaribilan mazkur o'quv predmetning vositalari asosida shug'ullanadi.

Bu aytilganlarni misol bilan tushuntiramiz. Studentlar uchun tafsia etilgan metodikaga doir qo'llanmalarning barchasida metodika fani oldida tadqiq etilishi lozim bo'lgan uch masalaning turishi ko'rsatiladi:

1. chet tili o'qitishning maqsad va vazifalari.
2. o'qitishning mazmuni
3. o'qitishning prinsiplari, usullari, metodlari

Masalaning keltirilgan ro'yxati asosan o'qituvchi faoliyati va u foydalanadigan materialni aniqlash bilan bog'liq bo'ladigan masalalar o'rganilishini ko'rsatadi. Tadqiq etiladigan masalalar doirasining bunday cheklanishi shunga olib boradiki, tarbiya va o'qitish obyektining o'zi o'quvchi o'quvchi etiboridan chiqib qoladi va metodika "befarزند bo'lib" qoladi.

Aytilganlarga muvofiq chet tili o'qitish metodikasining fan sifatida oldida turgan masalalarini quyidagicha belgilash to'g'ri bo'lsa kerak.

1. chet tili o'quv predmeti sifatida belgilash
2. o'qituvchinifaoliyatini o'rganish yani o'qitishning tashkiliy formalarini, metodlari va pryomlarini ishlab chiqish.
3. o'quvchining faoliyatini o'rganish, pryomlardan qaysi birining samarali ekanligini, bolaning o'sishi va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar.

shunday qilib chet tillarini o'qitish metodikasi o'ziga xos tadqiq qilish mavzuyiga ega, bu mavzu o'z xususiyatlari bilan faqat chet tili predmeti uchun xos bo'lgan chet tili vositasida o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash bilan bog'liq barcha pedagogika xodisalarining majmuyidir.

Chet tilida soʻzlovchining ongida xam til vositalarining tarkib topgan sistemasi boʻladi, bu sistemasiz til orqali aloqa, nutq boʻlmaydi. Chet tilini oʻrganishda til vositalari sistemasi turli yoʻllar bilan, yani ona tilini oʻrganish jarayoni singari uzoq amaliy ishlar qilish yoki praktika bilan nazariyani birga qoʻshgan xolda ishlash natijasida tarkib topadi. Lekin bu masalaning mohiyatini oʻzgartirmaydi.

Aytilganlardan koʻrinib turibdiki, nutq faoliyati jarayonida ona tili xam, chet tilida xam til sistemasi tarkib topadi. Shu boisdan bu qonuniyatni oʻqitish metodikasi uchun xos deb boʻlmaydi.

Oʻsib kelayotgan yosh avlodni chet til vositalari bilan oʻqitish va tarbiyalash jarayonida obyektiv mavjud qonuniyatlar xaqida aytilganlarning barchasi nazariy metodikaning bu qismi xali ishlanmagan, deb xulosa chiqarishga imkon beradi.

Demak chet tillarini oʻqitish metodikasining fan sifatida tadqiqot predmeti bor – oʻsib kelayotgan avlodga chet tillarini oʻqitish va bu predmet vositalari bilan uni tarbiyalash jarayonini oʻrganishdan iborat

Chet tili oʻqitish metodikasi maqsadi. Chet tili oʻqitish metodikasi maqsadi ikki xil – Oʻrganilayotgan tildan fikr almashish vositasi sifatida foydalanish koʻnikmasini shakllantirish xamda umumiy malumot berish va oʻquvchilarni tarbiyalash maqsadlari ilgari suriladi. Turli mamlakatlarning turli maktablarida chet tillarni oʻqitishning maqsadlarini ilgari surish masalasiga tarixiy nuqtai nazaridan qarasak bu maqsadlarni aniq amalga oshirishda xam gʻoyat xilma xillik mavjud. Turli metodik asarlarda mutlaqo xilma-xil tafsiyalar beriladi. “Xaqiqatdan xam xech qanday umimiy taʼlim predmetning vazivasida chet tillarni oʻqitish vazifasidek bunchalik noaniqlik mavjud emas“, deb yozadi E.M.Ritning fikriga qoʻshilish mumkin.

Maqsadning taʼriflanishidagi bunchalik koʻp xilma xilliklar, shuningdek, mazkur masaladagi bahslar bizning nazarimizda ikki sababga: birinchidan, predmetning oʻzining xususiyatini aniqlashdagi noaniqlikka, ikkinchidan, chet tillarni oʻqitish maqsadlari boshqa predmetlarni oʻqitish maqsadlariga qaraganda koʻproq jamiyatning ijtimoiy talabi, xukmron sinf siyosati tomonidan aniqlanishini yetarli xisobga olmaslikka bogʻliqdir.

Fan asoslarini o'rganishdagi jamiyatning ijtimoiy talabi, xukmron sinflarning siyosati avvalo, faktlarni, qonuniyatlarni tanlashadi. Ularni sharxlashda avvalo ayrim xollardagina xalq maktablarining o'quv planlaridan predmetni chiqarib tashlashda namoyon bo'ladi. Xaqiqatdan xam matematika o'qitilmaydigan maktabni deyarli tasavvur etib bo'lmaydi. Chet tillar esa ko'p vaqtgacha xukmron sinflar uchun imtiyoz tug'dirgan, xalq ommasining bularga erisha olmasligi esa xalqdan chiqqan kishilarning oliy maktabga kirish, davlat idoralarida masuliyatli lavozimlarni egallashlariga xalal berish vositasi bo'lgan,

O'quvchilar muayyan guruhning chet tilni bilib olishlariga to'sqinlik qilib, xalq ommasining Universitetlarga kirishiga yo'l qo'ymaslik an'anasi Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida xozir xam saqlangan. Bu mamlakatlarda xamma bolalar xam chet tilni o'rganavermaydi. Misol uchun Germaniya Federativ Respublikasining xalq maktablarida bolalar sinf raxbari va maktab direktorlarining ijozatidan keyingina chet tilni o'rganishlari mumkin, o'quvchilarning muayyan guruhi uchun chet tilni o'rganish taqiqlab qo'yilishi xam mumkin.

Har xil turdagi maktablarda ilgari surilgan umumiy ta'lim vazifalarining taxlili bu vazifalar xam xukmron sinfnig siyosatiga bog'liq ravishda maktabning muayyan turiga nisbatan ilgari surishini ko'rsatadi. Germaniya Federativ Respublikasining imtiyozli oliy o'quv yurtlari -- gimnaziyalarning programmalari shaxsning shakllanishida chet tilini o'rganishning umumiy ta'lim ahamiyatini tan olib kommunikativ maqsadlarni xal qilish jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan umumiy ta'lim maqsadlarini yetarli darajada mufassal tariflaydi. Shu bilan birga, xalq maktablari uchun top kommunikativ maqsadlar belgilanadi.

Bizning mamlakatimiz boshqa mamlakatlar bilan xalqaro aloqalarni yil sayin delegatsiyalar, fan, texnika va madaniyatning turli turli sohalaridagi yutuqlari xaqida axborot almashishlar kabi formalarda kengaytirib bormoqda.

Kommunikativ maqsadni to'g'ri belgilash uchun "tilni amaliy egallash" tushunchasini mohiyatini aniqlash kerak.

Chet til o'qitishning mazmuni. Bazi avtorlar o'qitishning mazmuni deganda o'quvchilarni o'qitishga xizmat qiladigan materialni tushunishnigina nazarda tutadilar.

Boshqalarni o'qitishning mazmuniga materialdan tashqari, malakalar va ko'nikmalar xam kiradi deyishadi.

Turli fikrlarni paydo bo'lishiga sabab, hanuzgacha didaktikaning bu savolga aniq va to'liq javob bermaganligidadir. Masalan, Didaktika mutahasislari o'qitishning mazmuniga turli darsda beriladigan xamda ongli xarakatga asos bo'ladigan o'quv materialini kiritganlar.

Boshqacha qilib aytganda didaktika malumot mazmuninig predmetlarning bir guruhini – fan asoslarinigina xisobga olib aniqlagan.

Tilni bilishda asosiy ro'lni muayyan so'z yoki grammatik xodisalarni bilish emas, balki og'zaki nutqn, o'qish va yozuv ko'nikma xamda malakalarni oshganlik darajasi o'ynaydi. Ko'nikma va malakalarni oshganlik darajasi bu predmetni o'qitish jarayonida go'yo asos vasifasini o'taydi.

Shunday qilib, chet tilini o'qitish mazmuning birinchi tarkibiy qismi aniq til materialini: leksika, grammatika, fonetika, orfografiyani bilishdan iboratdir.

Chet tili o'qitish mazmuninig ikkinchi tarkibiy qismi malaka va ko'nikmalardir. Chet tilini o'qitishning amaliy maqsadi og'zaki nutq, o'qish va yozuvni o'stirishni nazarda tutgani uchun xam o'qitishning mazmuniga aniqlashda, og'zaki nutq, o'qish va yozuv malakalari va ko'nikmalari kiradi.

Metodik adabiyotda “o'qitish mazmuni” tushunchasiga aniq tarif berilgan.

Biroq chet tillarni o'qitish mazmunini tanlash muammosi metodika fanining eng qadimiy muammolaridan biridir. bu muammoni eng qadim zamonda xam ilgari surilishi bejiz emas. Xar qaysi tilda xam ko'plab til belgilari mavjud. Eng to'la ingliz lug'atlaridan Webster's New International Dictionatu da qariyb yarim million so'z borligini aytib o'tishning o'zi o'rganilayotgan til leksikasining barchasini bilib ololmaydilar, albatta. Shuning uchun xam o'qitish mazmunini tanlash masalasi azaldan chet tillar o'qitishi kerak bo'lgan barcha kishilarni o'ziga jalb etgan.

Chet tillarni o'qitish mazmunini tanlash bilan bog'liq bo'lgan navbatdagi muammo o'qitish mazmunining o'qitish maqsadi va shart sharoiti bilan bog'liqligi muammosidir.

Shunday qilib o'qitishning mazmunini aniqlashda tubandagi umumiy ikkita talabning: birinchidan, qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun tanlangan o'qitish mazmunining yetarliligini; Ikkinchidan, muayyan shart sharoitda to'plangan o'qitish mazmunining o'quvchilarning o'zlashtira olishlarining o'zaro bog'liqligi xisobga olinishi lozim.

Yuqoridagilarni barchasini umumlashtirib quyidagilarni takidlash mumkin.

Chet tillarni o'qitish mazmuni leksik, grammatik va fonetik materialni; og'zaki nutq, o'qish va yozuv malaka va ko'nikmalarini ovoz va yozilgan nutq namunalari tarzidagi tekstlarni; og'zaki nutq va o'qish olib boriladigan temani shuningdek, ona tilida bo'lmagan til tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Pedagogik muloqotda tez-tez uchrab turadigan "metodika" atamasining uchta manosi bor.

1. O'quv predmetini bildiradi. (Mas.ertaga birinchi dars-metodika).
2. Ta'limning metodik usullari yig'indisini (Mas.o'qituvchimizning metodikasi menga yoqadi).
3. Ta'lim nazariyasi va maxsus fan (Mas. bu qo'llanmada metodika yaxshi yoritilibdi) ni ifodalaydi.

Chet tili o'qitish metodikasi, prof. Михаил Васильевич Ляховицкий tariflashicha, ta'limning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet tili yordamida ta'lim tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fandir.

Metodika fani asosan uch yirik mavzuni o'rgatadi. Chet tili o'rganishning nazariy masalalari, nutq faoliyati turlarini o'rgatish va chet tili o'rganishning tashkiliy masalalari.

Boshqacha qilib aytganda, metodika chet tili o'rgatish ilmi bo'lib, chet tilni o'quv predmeti sifatida belgilaydi, Muallim va o'quvchi faoliyatini o'rganadi va boshqa fanlar yutuqlarini o'zlashtirish va o'z qonuniyatlarini ishlab chiqish yo'llarini tadqiq etadi.

Metod - (yunoncha methodos tadqiqot) – maqsadga erishish yoki vazifani o'tash usuli; didaktikada/metodikada/fanda metod; ta'lim (-o'qitish) metodi, tarixiy metodlar, jarayon metodlari ,tarjima, to'g'ri, aralash, zamonaviy metodlar chet tili o'qitishda yo'nalishlardir; zamonaviy chet tili o'qitish metodlari; xorijiy mamlakatlarda audiolingval, aydiovizual,intensiv, komunikativ, interaktiv metodlar kabilardir.

Metod – Ta'limshunoslik o'qitishning umumiy nazariyasi sifatida ushbu atamalar keng qo'llanadigan fandır. Didaktlar (Ta'limshunoslar) “Metod” atamasini bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi muallim va talabaning ish usuli manosida izohlaydilar. Mazkur ta'limiy tushunchaning sonsiz sanoqsiz ta'rif-tafsiflarga egaligi mutaxasislarga ma'lum fan asoslarini o'rgatadigan o'quv predmetlari uchun mo'ljallangan ta'limning umumiy metodlari ishlab chiqilgan. O'quv predmetining xususiyatlari xisobga olinib metodikada chet til o'qitish metodlari yaratilgan.

Chet til o'qitish metodikasida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan.

Chet tili o'qitish metodikasida “metod” atamasi asosan uch manoni bildiradi.

1. Metod tarixdagi butun bir yo'nalish (tarjima metodi, to'g'ri metod, qiyosiy metod, aralash metod):
2. Yuqoridagi yo'nalish tarkibiga kiruvchi o'qitish sistemasi (Mas. Fransua Guen metodi, Xarold Palmer metodi, Maykl Uest metodi va boshqalar);
3. Muallim va o'quvchining o'zaro bog'langan faoliyati usuli (tanishish, mashq qilish va qo'llash metodlari).

Chet til o'qitish tarixida birinchi ikkinchi metodlar “tarixiy” metodlar nomi bilan, uchinchi esa “chet til o'qitish jarayonida metodlar” atamasi bilan yuritilgan.

Metodikada odatda tarixiy metodlar prinsiplardan tashkil topadi, prinsiplar yig'indisi muayyan metodni xosil qiladi. Jarayon metodlari esa o'qitish yo'llari orqali yuzaga chiqadi,binobarin, o'qitish metodlari va o'qitish prinsiplari aloxida muxokama etiladi.

1. Chet til o'qitish jarayonida metodlar.

Metod atamasini ifodalaydigan birinchi tushuncha – chet tili o'qitish metodikasidagi tarihiy yo'nalish (tarjima, tog'ri, qiyosiy, aralash metodlar)ning muxtasar bayoni yuqorida keltirildi. Ikkinchi manodagi (o'qitish sistemasi –Palmer, Uest, Guen metodlari) tushuncha chet til o'qitish metodikasi tarixida yoritiladi.

Muallim/o'quvchi faoliyati

Chet Tilarni O'qitish Metodlari.

Chet tillarini o'qitish metodikasida “Metod” termini ikki xil ma'noda: o'qitish usullaridan biri sifatida – alohida ma'noda o'qitishning prinsipial yo'nalishi sifatida – umumiy manoda qo'llaniladi.

Metod terminini alohida manoda tushunishda didaktika malumotlariga suyaniladi.

Didaktlar o'qituvchilar va ular boshqaradigan o'quvchilarning ish usullarini metodlar deb atashadi, shu usullar yordamida o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishga, malaka va ko'nikmalarini tarkib toptirishiga, shuningdek, ularda komunistik dunyoqarashni tarbiyalashga va ularning bilish imkoniyatlarini o'stirishga erishiladi. Metod o'qituvchinin maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatlarini belgilovchi darsdagi faoliyatning usuli deb qaraladi. Metod tanlash didaktlarning ko'rsatishicha, o'rganilayotgan materialning xususiyatiga bog'liqdir. Pedagogik adabiyotda, odatda metodlar bir-biridan quyidagicha farqlanadi: Materialni o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon etish, yani so'zlab berish, tushuntirish, maktab leksiyasi; darslik, umuman kitob bilan ishlash, o'quvchilarni kuzatishlari, laboratoriya ishlari; mashqlar va ijodiy ishlar.

Bu sanab o'tilgan metodlardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarga nazariy bilimlarni bayon etish usullari, o'quvchilar tomonidan kitobdan yoki laboratoriya yoki boshqa shu kabi boshqa ishlarni bajarish jarayonida bilim olish usullari nazarda tutiladi.

O'qituvchi chet tillarni o'qitishda o'quvchilar bilan ishlash usullarini aniqlash uchun shu predmetni o'qitish jarayoniga e'tibor bermoq lozim. Chet tilini o'qitish

jarayonida bir biri bilan mahkam bog'langan. Yani nutq malakasini o'stirish va til materialini o'zlashtirishdan iborat ikki tomon borligi yuqorida aytilgan edi. Bu xar ikki tomon uchun praxtika, trenirovka, mashq birinchi darajali ahamiyatga egadir. Mashqlar nutq malakalarini o'stirish, til materialini o'zlashtirish, dastlabki malakalarga ega bo'lish va bu malakalarni ko'nikmalarga aylantirish uchun xizmat qiladi.

Chet tillarni o'qitish usullari praktika bilan chegaralanib qolmaydi. Praktika samarali bo'lishi uchun o'quvchiga nima qilish kerakligini, qanday xarakat qilish, qanday materiallardan foydalanish kerakligini ko'rsatish lozim. Shuning uchun chet tillarni o'qitishda ko'rsatish yana bir usul xisoblanadi. Ko'rsatish til materialini o'zlashtirish uchun xam, nutq maxoratini o'stirish uchun xam bir xilda zarurdir.

Chet tillarini o'qitishdagi ko'rsatish boshqa o'quv predmetlarini o'qitishda qo'llaniladigan namoyish qilish metodiga o'xshaydi. Bunda farq metodik adabiyotda to'g'ri ko'rsatilganidek, shundan iboratki, chet tillarni o'qitishda narsa va hodosalar emas, tilning tovush materiyasi ko'rsatiladi. Shuning uchun chet tillarni o'qitishda eshitish va eshitish xissini tasavvurini taminlovchi eshitishga doir ko'rsatmalilikning muxim axamiyati bor.

Lekin metod usul tushunchasi bilan chegaralanishi noto'g'ri bo'lardi. Chet tillarni o'qitishda metod tushunchasi umumiy prinsipial yo'nalish sifatida metodika tarixiga doir tadqiqotlarda to'g'ridir: manashu ancha umumiy bo'lgan tushuncha asosida xar bir xususiy metodning roli va salmog'ini asosli ravishda aniqlash mumkin.

Umumiy metod o'qitishning maqsadlariga erishish uchun xizmat etadi, u ana shu maqsadlarga bog'liqdir. Chet tillarini o'qitish metodikasida umumiy metod tushunchasi yetarli darajada aniq ishlab chiqilgan, metodning tuzilishi va tanlanishiga ta'sir etuvchi omillar, metodlar asoslanadigan prinsiplar tadqiq etilgan, chet tillarini o'qitish metodlari tarixi o'rganilgan.

Chet tillarni o'qitish metodlarini biz ilgari tasvirlab berganimiz uchun xam endi metodik sistemani qisqacha tarflashga o'tamiz.

Bu metodik sistemaning xususiyatlari chet tillarini o'qitishning maqsadlaridan kelib chiqadi, faqat komunikativ emas, balki bilim va tarbiya berish maqsadlari xam

nazarda tutiladi. O'quvchilar shahsini xar tomonlama taraqqiy ettirish vazifalarini pisand qilmaydigan va faqat malakalar xosil qilishga qaratilgan metodik sistema albatta mufavvaqiyatsizlikka uchragan bo'lar edi.

Metodik sistema yaratishda yana bir obyektiv omil: chet tili va ona tilining tipologik yaqinligi muximdir. Bu omil chet tilida nutqni egallashda bo'ladigan qiyinchiliklarni ko'p yoki ozligini belgilaydi

O'zbekistonda chet tillarni o'rganish muammolari va istiqbollari.

O'zbekistonda chet tillarni o'qitishning zamonaviy davri, asosan, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda boshlandi. Jahon urushi keltirgan oqibatlar Ozbekiston aholisining nafaqat rus tili, balki G'arbiy Ovropa tillari, xususan, ingliz, nemis, fransuz, ispan tillarini o'qitishning zarurligini ko'rsatdi. Shuningdek, Sahrq tillari, birinchi navbatda, arab va fors tillari, hind va xitoy tillarini o'qitish ham kun tartibiga kiritildi. Shuning uchun Respublikada mahalliy kadrlarni o'qitishga alohida e'tibor berildi. Shunday bo'lsa-da hali chet tillarni o'qitish uchun zarur bo'lgan mutaxassislar va dasturlar taqchilligi sezilarli edi. Shuning uchun Moskva va boshqa shaharlarda tayyorlangan mutaxassislar O'zbekistonga taklif etildi va markazdan dasturlar olib kelindi.

Biroq markazda ishlab chiqilgan dasturlarni O'zbekiston maktablari sharoitiga moslashtirishga birinchi urinishlarni muvaffaqiyatli deb bo'lmayli. Chamasi, bunga sabab dasturlarni maxalliyashtirish masalalari metodikada umuman ko'rilmaganligida bo'lsa kerak. Ammo bunday moslashtirilgan dastur bilan ishlab bo'lmasligini hayotning o'zi ko'rsatdi. "Chet tillar o'rgatishni yaxshilash to'g'risida" hamda "Chet tillar o'qituvchilari tayyorlash haqida"gi (1947 yil) markaziy hukumat qarorlari Chet tillar o'qitishni yo'lga qo'yishda sezilarli bosqich bo'ldi. O'zbekiston hukumati 1948 yilda "Chet tillar o'qitishni yaxshilash to'g'risida" va "Chet til muallimlari tayyorlashni tashkil etish haqida" qaror qabul qildi. Toshkent Chet tillar institutini ochish taklif qilindi va bu institut 1948 yilda tashkil etildi. 1949 yili institut qoshida sirtqi bo'lim, 1960 yilda esa kechki bo'lim ochildi. 1959 yilga kelib, O'zbekiston Maorif vazirligi ma'lumotiga qaraganda, chet tillar jumhuriyatdagi maktablarning 37 foizida o'qitilgan.

50-yillarda rus maktablari uchun chet til bo'yicha nashr etilgan dastur va darsliklarni o'zbek maktablarining xususiyatlariga monand moslashtirish ishlari davom ettirildi. Muallimlar O'zbekiston maktablarida ishlashga doir dastlabki metodik maqola va ko'rsatmalar oldilar. Masalan, 1959 yilda "Dopolnitel'noe samostoyatel'noe chtenie na inostrannom yazike v shkolax Uzbekistana" qo'llanmasi bosmadan chiqdi. Shunday qilib, maktab faqat o'quv qo'llanmasi emas, balki metodik adabiyot ham ola boshladi.

Chet tillar o'rganishni istovchilar uchun kurslar ochilishi oltmishinchi yillardagi chet til o'qitish sohasida jiddiy o'zgarish bo'ldi. Chet tillar institutida va fakul'tetlarida mahalliy xalqlar vakillarining soni oshdi. Agar 1961/62 o'quv yilida Toshkent davlat Chet tillar pedagogika instituti (TDCHTPI) da o'qiyotgan 1377 studentdan 997 tasi, ya'ni 72 foizga yaqini o'zbeklarni tashkil etgan bo'lsa 1970/71 o'quv yiliga kelib institutda 2672 talaba o'qidi, ulardan 2267 kishi, ya'ni 84 foizi o'zbeklar edi. 1962 yilda TDCHTPI qoshida ikki yillik oliy pedagogik kurslar, 1969 yildan O'rta Osiyo oliy o'quv yurtlarining chet til muallimlari malakasini oshirish fakul'teti ishlay boshladi. Bu kurslar yuqori malakali kadrlar tayyorlashning nufuzli o'chog'iga aylandi.

Yetmishinchi yillarning boshida chet til o'qitish mazmunini belgilashda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shu yillarda o'zbek maktablari uchun original dastur yaratildi. Dastur loyiqasi 1968 yilda e'lon qilingan edki.

Saksoninchi yillarda ilmiy tadqiqotlar izchil davom ettirildi. Maktabda Chet til o'qitish muammolarini yoritadigan nomzodlik dissertatsiyalari tayyorlandi:

1. X. Saynazarov. Obuchenie leksike angliyskogo yazika v starshix klassax uzbekskoy shkoli. Avtoreferat kand. diss. -L., 1982;
2. T. K. Sattarov. Metodicheskoe sodержanie obucheniya aktivnoy grammatike angliyskogo yazika v uzbekskoy sredney shkole. Avtoreferat kand. diss. - Moskva, 1982;

3. M. M. Mamadjanova. Formirovanie retseptivnix grammaticeskix navikov angliyskogo yazika u uchashixsya na nachal'nom etape obucheniya.-Avtoreferat kand.diss.- Moskva, 1982;

4. Yu. Э. Temirov. Eksperimental'noe issledovanie effektivnosti perevodnix uprajneniy pri obuchenii grammaticeskomu stroyu angliyskogo yazika (nachal'naya stupen' shkol'nogo obucheniya). Avtoreferat kand. diss. - Kiev, 1983).

Oliy o`quv yurtida frantsuz va nemis tili o`qitish metodikasidan nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi:

1. N. Bakaev. Metodika obucheniya ponimaniyu form proshedshego vremeni frantsuzckoro glagola pri chtenii literaturi po spetsial'nosti (v natsional'nix gruppax istoricheskix fakul'tetov pedinstitutov Uzbekistana), Avtoreferat kand. diss. Kiev, 1985;

2. R. N. Kremer. Obuchenie rechevomu sintaksicheskomu naviku nemetskogo yazika studentov natsional'nix grupp (na materiale I kursa yazikovogo vuza). Avtoreferat kand. diss. - Leningrad, 1987;

3. M.S. Dadaxodjaeva. Formirovanie ritmiko-intonatsionnix navikov viskazivaniya na nachal'nom etape yazikovogo vuza (pri kontakte nemetskogo yazika s uzbekskim). Avtoreferat kand. Diss. - Moskva, 1987).

Metodik tadqiqotlardan tashqari chet tillar materialida pedagogika masalalariga bag`ishlangan nomzodlik dissertatsiyalarini jumhuriyat chet til muallimlari va metodistlari himoya qilishgan:

1. R. A. Zaripova - 1969;

2. T. B. Hamdamov - 1973;

3. B. Jabborov - 1975;

4. A. P. Uporova -1979;

5. D. A. Fozilova - 1979;

6. E. Ergashev- 1983.

Xorijiy tillar hozirgi kunda maktab va madrasalarda, oliy o'quv yurtlarida va kollejlarda yetakchi fanlar sifatida o'qib-o'rganilmoqdaki, buning samarasi o'laroq yoshlarimiz rus, ingliz, olmon, fransuz, fors, arab, xitoy, yapon, koreys, ispan, xind va yana qator rillarda bimalol muloqot qilishmoqdalar. Xorijiy mamlakatlarga borib, ishlarini bitirib, malakalarini oshirib qaytmoqdalar va xokazo. Xullas, xorijiy tillar jaxon xamjamiyati bilan aloqada bo'lishimizning zaruriy vositasi sifatida xayotimizga kirib kelgan omil sifatida ko'zga tashlanmoqda.

Respublikamizda Xorijiy tillarni ta'limining yo'lga qo'yilganligi xaqida so'z ketadigan bo'ls, bu boradagi ishlarimiz ko'ngildagidek. Maktab va oliy o'quv yurtlarimiz malakaliy o'qituvchi kadrlar, darslik va qo'llanmalar, katta kichik lug'at va so'zlashuv kitoblari bilan qoniqarli darajada ta'minlangan. Bu ishlarni chettan kelib kimdurlar qilib bergani yo'q, balki ular o'z millatimiz farzandlari, o'zimizda yetishib chiqqan mutaxassislar sayi-xarakati tufayli qo'lga kiritilmoqda. Bugungi kunda, jumladan, ingliz tili grammatikasi bo'yicha professor Jamoliddin Bo'ronov tomonidan yaratilgan darslik va qo'llanmalar, fonetikasi bo'yicha professor Abduzuhur Abduazimov yozgan ta'lim vositalari, o'qitish metodikasi bo'yicha professor Jamoliddin Jalolov qalamiga mansub darslik va dasturlar, tarjima nazariyasi bo'yicha professor Quadrat Musayev yozgan darslik va lug'atlar o'zbek tolibul ilmlarning dasturil amallari sanaladi.

Respublikamizda xorijiy tillar ta'limi bo'yicha ish olib borib, muayyan yutuqlarni qo'lga kiritgan olimu fozillarning son sanog'i yo'q. Quyida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti ingliz tili nazariyasi va o'qitishmetodikasi kafedراس professori, filologiya fanlari doktori Quadrat Musayev ilmiy pedagogik faoliyati xaqida qisqacha to'xtaslib o'tamiz.

1957-yilda Odessa davlat xorijiy tillar pedagogika institutining ingliz tili fakultetini namunali ko'rsatkichlar bilan tugatgan Quadrat Musayev o'z ilmiy-pedagogik faoliyatini Samarqand Davlat Universitetining Xorijiy tillar fakultetida boshlaydi. Yosh qudratillo padari buzrukvari izidan borib, darxol o'zini ilmiy faoliyatga uradi. Uning birinchi kitobi "Lotin tilidan qo'llanma" 1961-yilda meditsina nashriyotida bosilib chiqadi.

Q.Musayevning “Badiiy tarjima va nutq madaniyati” (1976), “Badiiy tarjimaning leksika-frazeologiya masalalari” (1978), “tarjima tili madaniyati” (19 kitoblari tarjima nazariyasi va tanqidchiligiga birmuncha keng miqyosda yondashish imkoniyatini berdi.

Qudrat Musayevning 2005-yilda “fan” nashriyotida chop etilgan “Tarjima nazariyasi asoslari” nomli darsligi o’qituvchi va talabalar e’tiborini tortdi, o’quv jarayonida qo’llanilmoqda.

O’zbek tarjimashunosligi tarixi varaqlansa , bu fan bo’yicha yozilgan kitoblar va boshqa ilkmii ishlarning aksariyati rus-o’zbek va o’zbek-rus tillari materialida bajarilganligiga guvoh bo’lamiz. Xorijiy tillardan o’zbek tiliga qilingan tarjimalar turli dissertatsion tadqiqotlar va ayrim maqolalarda fragmentar o’rganib kelinsada, yaqin-yaqingacha ushbu yo’nalishda to’plangan ilmiy amaliy tajribalarni umumlashtirgan darslik va qo’llanmalar yo’q xisob edi. Ana shun day mas’ul va mushkul vazifani yechish inglizshunos olim professor Qudrat Musayev zimmasiga trushdi.

Qudrat Musayev 2003-yilda Respublikamizda birinchi bo’lib oliy o’quv yurtlari uchun “Ingliz tili stilistikasi” nomli darslik chop ettirdiki, u hozirda talaba va o’qituvchilarning sevimli o’quv qo’llanmasiga aylanib qoldi.

Chet tili o’qitish metodikasini O’zbekistonda rivojlanishi.

Mustaqillik tufayli yurtimizda iqtisodiy, siyosiy, madaniy soxalarda tub o’zgarishlar bo’lmoqda. Yoshlarni jaxon andozalari asosida bilimli, yuqori ma’naviyatga ega bo’lgan komil inson qilib tarbiyalash davr talabi bo’lib qolmoqda. Jumhuriyatda xalqaro munosabatlarning tobora rivojlanib borishi, turli sohalarda ham xamkorlikni oshishiga, kuchayishiga sabab bo’lmoqda. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko’rsatayotgan o’nlab chet el korxona va muassasalari, qo’shma korhonalar fikrimiz dalilidir.

Turli sohalarda mutaxasislarni tayyorlaydigan oliy o’quv yurtlarida, institutlarida chet til o’qitishning o’ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ixtisosligi chet tili bo'lmagan oliy o'quv yurtlarida talabalarga chet til o'rgatishning asosiy maqsadi, o'qish, tushunish va o'zining tor soxada malumot berishidir. Tildan mutaxassislik bermaydigan ixtisos uchun chet tilni amaliy o'rganishdajonlangan sohadagi matnlarni o'qish va dastur doirasidagi og'zaki nutq mavzulari yuzasidan chet tilda fikr almashish egallanadi.

Ixtisosligi chet tili bo'lmagan talabalar chet til o'rganishda dasturiy chegaralangan meyorda o'qish va gapirish bilan mashg'ul bo'ladilar. Chet til o'qitishning ta'limiy maqsadiga binoan talabalar tafakkurini o'stirish, sohaviy bilim saviyasini oshirish va til tajribasini boyitish vazifalari xal etiladi.

Respublikamizda xorijiy til ta'limini takomillashtirish soxasida so'ngi paytlarda qator ilmiy ijobiy ishlar qilinmoqda. M-n. Xorijiy filologiya mutaxassisligiga yo'nalgan akademik litsey, gimnaziya tashkil etilmoqda, ta'lim muassasalarining barcha turlarida "Chet tili" predmetiga ajratilgan soatlar miqdori ko'paytirildi, o'quvchi – talabalar zamonaviy darslik, o'quv qo'llanmalari bilan taminlanmoqda, xorijiy tillar bo'yicha turli tanlov-ko'rik olimpiadalar o'tkazilmoqda, xorijiy filologiya va uni o'qitish metodikasiga oid ilmiy – tadqiqot ishlari olib borilmoqda, ilmiy anjuman, seminarlar tashkil etilmoqda, risola va maqolalar chop etilmoqda.

Amalga oshirilayotgan tadbirlar ta'lim samarasiga ijobiy ta'sir etmoqda. Xorijiy tillarda erkin muloqot qiladigan kishilar soni ortib bormoqda, xorijiy tillarda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda, adabiyot, san'at, fan texnika soxasidagi adabiyotlar xorijiy tillardan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan xorijiy tillarga bevosita tarjima qilinmoqda va boshqalar. Biroq yuqorida sanab o'tilgan va boshqa yutuqlar bilan bir qatorda xorijiy til ta'limi tizimida bir qancha muammolar mavjud.

Talabalarning xorijiy tilda og'zaki muloqot qilish, o'rganilayotgan tilda bitilgan asliyatdagi adabiyotni o'qishga o'rgatish kabi masalalar xorijiy til ta'limining vazifalari sifatida qaralgani to'g'ri. Biroq talabalarni yozma muloqot qilish, matnni tinglab tushunish, turli hajmdagi matnlarni xorijiy tildan ona tiliga, ona tilidan xorijiy tilga tarjima qilishni o'rgatish kabi muhim vazifalar etiborsiz qolgan. Taxlil qilinayotgan namunaviy dasturda soatlar miqdorining mavzular bo'yicha taqsimlashda shunday jiddiy metodik xatolikka yo'l qo'yilganki, bu xato mazkur

dastur qiymatini chippakka chiqargan. “Xorijiy til” ta’limiga ajratilgan soat miqdori dasturda quyidagicha taqsimlangan: “Fonetika”-20-soat, “Fonetika” -46 soat, “grammatika” -48 soat, “grammatika” -60 soat, “matnanotatsiyasi” -30 soat va “Reting o’tkazish” -12 soat. Mazkur taqsimotga ko’ra talabalarning nutq faoliyatini turlarini o’rgatish o’rniga, ularga til aspektlari – fonetika va grammatikani o’rgatishimiz kerak bo’ladi. Xorijiy til ta’limini tashkil etishga bunday yondashish ta’lim maqsadini amalga oshirishga zid xoldir.

Namunaviy dasturda “xorijiy til” predmetiga ajratilgan soat miqdori shu fan oldiga qo’yilgan maqsad va vazifalarni talabalarning mustaqil ishlarini to’g’ri tashkil qilmasdan amalga oshirishga imkon bermasligi tajribadan malum. Biroq mazkur dasturda talabalarning mustaqil ishlari xaqida umuman so’z yuritilmagan.

Xorijiy tilni o’rgatishda leksik materialni axamiyati cheksizdir. Shu boisdan xam xorijiy til leksikasini o’rgatish masalalari jahon tillar o’qitish metodikasida keng yoritilgan.

Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida Prezident qarori

10.12.2012 20:36

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

Qayd etib o‘tilsinki, mamlakatda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o’qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg’un kamol topgan, o’qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo’naltirilgan tizim yaratildi.

Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o’qituvchilari tayyorlandi, umumta’lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo’yicha multimedia darsliklari, boshlang’ich sinflarda ingliz tilini o’rganish bo’yicha elektron

resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi.

Shu bilan birga, chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayapti. Ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida:

1. Belgilab qo'yilsinki, 2013/2014 o'quv yilidan boshlab:

Respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi;

oliy o'quv yurtlarida ayrim maxsus fanlarni, xususan, texnik va xalqaro mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish chet tillarda olib boriladi;

umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari va o'qituvchilarini chet tillar bo'yicha darsliklar va o'quv-uslubiy komplekslar bilan ta'minlash, ularni belgilangan muddatlarga rioya etilgan holda qayta nashr etish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg'armasining aylanma mablag'lari hisobidan bepul amalga oshiriladi.

2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni o'rganishni kengaytirish chora-tadbirlari dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Dasturga kiritilgan chora-tadbirlar belgilangan muddatlarga muvofiq sifatli va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, boshqa vazirliklar, idora va ijrochi-tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatilsin.

3. Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o'rinlarda – Muvofiqlashtiruvchi kengash deb yuritiladi) 2-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil qilinsin, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti uning ishchi organi etib belgilansin.

Muvofiqlashtiruvchi kengash (A.Ikromov) manfaatdor vazirliklar, idoralar bilan birgalikda hamda yetakchi olim va mutaxassislarni jalb etgan holda:

2013-yilning 1-martigacha bo'lgan muddatda har bir ta'lim bosqichida chet tillarni bilish darajasining aniq mezonlarini nazarda tutuvchi yangi ta'lim standartlari tasdiqlanishini ta'minlasin;

2013-yilning 1-mayigacha bo'lgan muddatda umumta'lim maktablarining birinchi sinfidan boshlab chet tillar ta'limini uzluksiz joriy etilishini, shuningdek, ta'limning barcha bosqichlarida uning davomiyligini nazarda tutuvchi umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlarining yangi o'quv rejalari va dasturlari tasdiqlanishini ta'minlasin;

ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalari, darsliklarni ishlab chiqish, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etish uchun yetakchi xorijiy o'quv markazlarini, chet tillar bo'yicha xalqaro ekspertlar va mutaxassislarni jalb etsin;

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda chet tillarni o'qitish tizimi tubdan qayta ko'rib chiqilishi va kuchaytirilishini, o'quv yakunlari bo'yicha umume'tirof etilgan testlar (imtihonlar) topshirilishini ta'minlasin.

4. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tarkibida Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi tashkil qilinsin, Markaz xodimlarining soni 12 kishiga ko'paytirilsin va uning vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilansin:

xalqaro e'tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholashning Milliy test tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

o'rganuvchilarni chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlashni to'lov asosida test o'tkazish (jumladan, Internet orqali masofaviy) va davlat namunasidagi tegishli malaka sertifikatini berishni tashkil etish;

o'rganuvchilarning mustaqil ravishda, chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash uchun, testga tayyorlanishlariga zarur ma'lumotlarni tayyorlash va Internet tarmog'iga joylashtirish.

Markazning byudjetdan tashqari daromadlari hisobidan unga yuklangan vazifalarni bajarish uchun Markazga to'lov asosida mustaqil ekspertlarni va imtihon oluvchilarni jalb etish huquqi berilsin.

5. Davlat test markazi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda, ikki oy muddatda, 2015/2016 o'quv yillaridan boshlab, barcha oliy ta'lim muassasalariga kirish testlari blokiga xorijiy tilni kiritish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

6. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

Umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv muassasalarida chet tillar o'qituvchilariga zarur ehtiyoji bo'lgan uzoq tumanlar va qishloq aholi punktlarida yashayotgan aholi ichidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining tavsiyanomalari asosida chet tillar o'qituvchilari ixtisosligiga oliy ta'lim muassasalariga maqsadli qabulni amalga oshirishga ruxsat etiladi;

maqsadli qabul asosida oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingan shaxslar, o'qishni bitirganlaridan so'ng, o'zlari yashaydigan joylarda joylashgan va mahalliy davlat hokimiyati organlari tavsiyanomalarida ko'rsatilgan ta'lim muassasalarida 5-yildan kam bo'lmagan muddatda olingan mutaxassisliklari bo'yicha ishlab berishlari shart.

7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Moliya vazirligining chet tillar o'qituvchilari va muallimlariga qonun hujjatlari bilan belgilangan rag'batlantiriluvchi to'lovlar va qo'shimchalarni hisoblashda, ularning lavozim maoshlari tarkibiga kiritgan holda qishloq joylarda joylashgan ta'lim muassasalarida ularning tarif stavkalariga 30 foiz va boshqa ta'lim muassasalarida 15 foiz stavkalari miqdoridagi har oydagi qo'shimchalar qo'shib berishni belgilash to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi uch oy muddatda, moliyalash manbalari Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar, xorijiy kreditlar va xalqaro grantlar, shuningdek, homiyar va xayriyachilar mablag'lari ko'zda tutilgan holda, 2013-2016-yillarda ta'lim muassasalari xorijiy tillar kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya va o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan (qo'shimcha jihozlash) jihozlashning jadallashtirilgan dasturini ishlab chiqsin hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda uni Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritsin.

9. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Davlat aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari qo'mitasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligi, bolalar va yoshlarning manfaatlari hamda qiziqishlarini inobatga olgan holda, quyidagilarni ta'minlasin:

televideniye, shu jumladan mahalliy telekanallar orqali bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlar tayyorlash hamda ularni translyatsiya qilish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati, jahon ilmi va texnikasiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy hamda multiplikatsiyaviy filmlarni o'zbek tilidagi subtitrlar yordamida, muntazam ko'rsatib borishni amalga oshirish;

"ZiyoNet" tarmog'i orqali ta'lim muassasalarining xalqaro ta'lim va bilim olish manbalariga kirish imkoniyatlarini sezilarli oshirish, uning resurs markazini multimElektron darsliklari resurslari, shaxsiy kompyuterlar va mobil uskunalar uchun ilovalar bilan boyitish, shuningdek, ingliz tilida o'quv va badiiy adabiyotlar,

ixtisoslashtirilgan rasmlar bilan bezatilgan gazetalar va jurnallarni chop etish, ularga maxsus ruknlar hamda ilovalarni tashkil qilish.

10. 2013-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun asoslangan hisob-kitoblar bo‘yicha har yili byudjet mablag‘lari ajratilishini nazarda tutsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar haqida Vazirlar Mahkamasiga takliflar, shuningdek, idoraviy me’yoriy hujjatlarga tegishli o‘zgartishlar kiritsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.Ikromov zimmasiga yuklansin.

II. BOB Chet tilni masofadan turib o'qitish turlari va metodikasi

Masofaviy ta'lim va uning mohiyati.

Yaqin vaqtlargacha masofaviy ta'lim, sirtqi ta'lim, ochiq ta'lim va hokazolar kabi tushunchalar deyarli bir-biridan ajratilmas edi. Biroq hozirgi vaqtga kelib, masofaviy ta'lim MT o'z ahamiyati va zarurligini isbotladi. Biroq hozirgacha, MT – bu ta'lim shaklimi yoki texnologiyami degan savollar dolzarbligicha qolmoqda. Chunki, bu savolning tushunchasidan masofaviy ta'limning strategiyasi, amalga oshirish taktikasi hamda o'qituvchilarni masofaviy ta'limda ishlashga tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtda masofaviy ta'limning tadqiqotchi va amaliyotchilari tomonidan unga quyidagicha asosiy ta'rif berib kelinmoqda:

– Masofaviy Ta'lim – bu o'quv materialining yetkazib berilishida, mustaqil o'rganishida, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muloqot almashinuvida qo'llaniladigan, an'anaviy va yangi axborot texnologiyalarni hamda ularning texnik vositalarni keng qamrovda ishlatilishidagi ta'limning sintetik, integral, ijtimoiy shaklidir.

– Masofaviy Ta'lim – Interfaollikni nazarda tutgan Internet texnologiyalarining maxsus vositalari yoki boshqa vositalar bilan amalga oshiriladigan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ta'sir masofada amalga oshiriladigan va o'quv jarayoniga mos bo'lgan kompyuterlarni (maqsad, mazmun, usullar, tashkiliy shakllar) aks ettirgan ta'lim shaklidir. Yuqorida keltirilgan ta'riflardan masofaviy ta'lim mohiyatini tushunishga yagona tizim yo'q deb xulosa qilish mumkin. Biroq hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'limni masofaviy ta'limning texnologiyasi ko'rinishida keltirilgan, bu esa qonunchilik bazasi bilan mustahkamlanmagan.

Shunday qilib, masofaviy ta'lim texnologiyasi deganda: CD – texnologiyasi tushuniladi (vaqtinchalik talabalarda keys-texnologiya) – o'quv materiallari, o'quvchilarga chop etiladigan va multimediyali olib yuriladigan vositalarda keltirilgan (disklar CD-ROM, DVD-ROM). U qoidaga asosan kunduzgi shakldagi mashg'ulotlarga mos ravishda qo'llaniladi: ko'rgazmali ma'ruzalar, seminarlar, trenglar, konsultatsiyalar va nazorat ishlari. O'qituvchi bilan bo'ladigan muloqotlarning bir qismi (misol uchun, konsultatsiya), shuningdek, elektron kutubxonalardan axborotlar va ma'lumotlar olinishi, Internet orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tarmoq texnologiyasi – oliy o'quv yurtlarining Internet serverida joylashadigan kompyuterda o'rgatiladigan dasturlar va elektron darsliklarni ishlatilishidir. Internet orqali o'qituvchi bilan bog'lanilib, oraliq va yakuniy test nazoratlaridan o'tishi mumkin. Qator oliy o'quv yurtlari ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini xuddi shuningdek, aniq vaqt rejimida o'tkazadilar. Imtihonlarni o'quvchilarning yashash joylariga yaqin bo'lgan oliy o'quv yurtlarining o'quv markazida o'tkazadilar.

Tarmoqli o'qitish mustaqil tarzda, shuningdek, axborot ta'lim muhitining ochilishi asosida tashkil etilishi mumkin.

Televizion-yo'ldoshli texnologiya tashkiliy jihatdan tarmoq texnologiyasi bilan o'xshashdir, faqat o'qituvchi va o'quvchilar muloqoti aloqaning yo'ldoshli kanallari bo'yicha amalga oshiriladi. Yuqorida qayd etilgan uchala texnologiya bo'yicha hozirgi vaqtda, ta'limning kunduzgi va masofaviy davrlarini moslashtirgan holda ko'pincha gibridli modelidan foydalaniladi. Biroq chet elda masofaviy ta'lim shakli sifatida ko'riladi, shuning uchun quyidagi savol dolzarb hisoblanadi: Masofaviy ta'lim – bu shaklmi, texnologiyami yoki vositami?

Masofaviy ta'limni ta'lim shakli sifatida ko'rib chiqamiz.

Masofaviy ta'lim ta'limning yangi shakli sifatida mutlaqo mustaqil ta'lim bo'la olmaydi. Masofaviy ta'lim kunduzgi ta'lim mazmunidagi kabi mos ravishda o'sha maqsadlar bilan quriladi (agar u ta'limga mos keluvchi dastur bo'yicha qurilsa), lekin, materialni yetkazish shakli, o'qituvchi va o'quvchilar shuningdek, o'quvchilarning o'zaro o'rtasidagi ta'sir etish shakli boshqacha bo'ladi. Masofaviy ta'limning asosiy bazaviy didaktik prinsiplari boshqa yuksak ta'lim turlari kabidir, lekin masofaviy ta'limning tashkiliy prinsiplari boshqachadir, ular masofaviy ta'lim uchun xosdir, chunki shakl xususiyatlari, internetning axborot vositasi imkoniyatlari, uning xizmatlari (chatlar, forumlar, elektron pochta, videokonferensiya) bilan ifodalangan.

Masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari sifatida modullilik, o'qituvchi rolini o'zlashtirish, o'quv jarayoni subyektlarining masofa bilan ajratilganligi, ta'limning virtual kooperativligi, o'qituvchi tomonidan yuritiladigan nazorat ustidan o'z nazoratini o'rnatish, zamonaviy maxsus ta'lim texnologiyalari va vositalarining ishlatilishini keltirishimiz mumkin.

Masofaviy ta'lim ishlatilishining asosiy sohalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ma'lum sohalar bo'yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish;
- imtihonlarni ekspert usulida topshirishda alohida o'quv fanlari bo'yicha maktab o'quvchilarini tayyorlash;
- ma'lum yo'nalishdagi o'quv muassasalariga o'qishga kirish uchun maktab o'quvchilarini tayyorlash;
- maktab o'quvchilarning yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olishlarini tashkil etish;
- qiziqish bo'yicha qo'shimcha ta'lim olish;
- kadrlarni kasbga qayta tayyorlash;
- kasbiy tayyorgarlik.

Masofaviy ta'lim bilan kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarini taqqoslab, shuni xulosa qilish mumkinki, masofaviy ta'limni, personal kompyuterlar, video va audio texnika, kosmik va optik tolali texnikaning ishlatilishida asoslangan ta'limni axborot texnologiyalari bilan ta'min etilganligi sirtqi va kunduzgi ta'lim rivojlanishining yangi bosqichi sifatida ko'rish mumkin. Masofaviy ta'lim ta'limning sirtqi shaklidan shunisi bilan farq qiladiki, unda materialning mohiyatli qismi mustaqil o'zlashtirilmasdan, o'qituvchi bilan doimiy muloqotda amalga oshiriladi (telefon va internet, ma'ruza va seminarlarda onlayn rejimidagi konsultatsiyalar). Shuningdek, masofaviy ta'limning sirtqi ta'lim shaklidan asosiy farqlari sifatida quyidagilarni kiritish mumkin: – telekommunikatsiya vositalari yordamida o'qituvchi bilan doimiy (tyutor bilan) muloqot, vujudga keladigan savollarni u bilan operativ tarzda muloqot qilish imkoniyati;

Mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotganligi kun sayin yaqqol ko'rinib bormoqda. Turli ta'lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish (MO') keng qo'llanilayotgatliligi ham quvonchli hol. Ushbu uslubning ko'plab afzallik tomonlari borligi ko'pchilikka ayon. Barcha oliy o'quv yurtlarida masofadan o'qitish texnika va texnologiyasini amalga oshirish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Axborot texnologiyalarni rivojlanishi masofadan o'qitishni tashkil etishga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Masofadan o'qitishni tashkil etishni hozirgi zamon modellarining asosida kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalari yotadi. Ushbu texnologiyalar axborotdan foydalanuvchilarga keng qamrovli yo'l ochib berish bilan birga ularni muhofaza etish muammosini keltirib chiqaradi.

Masofadan o'qitishda o'qituvchi bilan tinglovchining orasida to'g'ridan-to'g'ri muloqotning yo'qligi ham ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, muammoli o'qitish jarayonini tashkil etishda ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Tinglovchini yetuk mutaxassis qilib tayyorlashda muammoli o'qitishni tashkil etish muloqotni telekonferensiya orqali amalga oshirish mumkin. Ammo, bu bilan muammoni to'la hal etib bo'lmaydi. Ushbu muammoni hal etish uchun qo'shimcha o'quv materiallarni ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bular qatorida turli darajadagi muammoli topshiriqlar, muammoli vaziyat hosil qiluvchi ko'rsatmalar va hokazolar bo'lishi maqsadga muvofiq.

Masofadan O'qitish asosida ta'lim berish uchun o'qish istagida bo'lgan aholining muayyan qismini ta'lim muassasasi Hozirgi zamon talabiga to'liq javob beradigan mutaxassisni tayyorlash bu – davr talabidir. Hozirgi vaqtda respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash, o'qitish, bilim berish, zamonaviy axborot texnologiyalarga yaqindan yondashish hamda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatish maqsadida juda ko'p ijobiy ishlar amalga oshirilib borilmoqda. Ulardan asosiysi,

“Masofadan o‘qitish texnika va texnologiyasi”dir. Shu nuqtai nazardan yosh avlodni masofadan o‘qitish tizimiga tayyorlash bosqichlarini quyidagi ko‘rinishda amalga oshirish mumkin:

Hozirgi axborot texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda masofaviy o‘qitish katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ta’limning bu turi shu paytgacha mavjud bo‘lgan ta’lim turlaridan o‘zining ayrim ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi. Masofadan O‘qitishning kunduzgi va boshqa ta’lim turlaridan farqli jihati shundaki, mazkur ta’lim turiga juda keng aholi ommasini jalb qilish mumkin. Masofadan O‘qitish o‘zida kunduzgi va sirtqi ta’lim turlarining ijobiy xususiyatlarini mujassam etadi. Shu jihatlariga ko‘ra Masofadan O‘qitish hozirgi kundagi istiqbolli ta’lim turlaridan biri hisoblanadi joylashgan yerga yig‘ish shart emas. Ikkinchidan, tinglovchi yoki o‘quvchi tomonidan ortiqcha sarf – xarajat qilish zarurati bo‘lmaydi. Uchinchidan, bu ta’lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilish mumkin.

Masofadan O‘qitishga jalb qilinuvchi kontingentni quyidagi ijtimoiy guruhlariga mansub bo‘lgan shaxslar tashkil qilishi mumkin:

- ikkinchi oliy yoki qo‘shimcha ma’lumot olish, malaka oshirish va qayta tayyorgarlik o‘tash istagida bo‘lganlar;
- mintaqaviy hokimiyat va boshqaruv rahbarlari ;
- an’anaviy ta’lim tizimining imkoniyatlari cheklanganligi sababli ma’lumot ola olmagan yoshlar;
- o‘z ma’lumot maqomini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish istagida bo‘lgan firma va korxonalar xodimlari;
- ikkinchi parallel ma’lumot olishni xohlagan tinglovchilar;
- markazdan uzoqda, kam o‘zlashtirilgan mintaqalar aholisi;
- erkin ko‘chib yurishi cheklangan shaxslar;
- jismoniy nuqsonlari bo‘lgan shaxslar;
- harbiy xizmatda bo‘lgan shaxslar va boshqalar.

O‘zbekiston sharoitida Masofadan O‘qitishni tashkil qilish katta samara beradi. Hozirgi davrda ta’limning bu turidan keng miqyosda foydalanish lozim. Mazkur ta’lim turini joriy qilish bilan bog‘liq ayrim muammolarning kelib chiqishi tabiiy. Lekin ularni imkoniyat darajasida hal qilishga erishish mumkin. Masalan, dastlabki paytda televideniya foydalanish katta samara berishi mumkin. Hozirgi kunda televideniye orqali ayrim fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari tashkil qilinib kelinyapti. Lekin ko‘rsatuvlarning samaradorligi hali yetarli darajada emas.

Birinchidan, bu ko‘rsatuvlar asosan kunduzi namoyish etiladi.

Ikkinchidan, uning metodikasini yanada takomillashtirish kerak.

Mazkur o‘quv mashg‘ulotlari bazasida Masofadan O‘qitish tashkil qilinadigan bo‘lsa, u holda mazkur ta’lim turining tashkiliy – uslubiy tomonlarini qayta ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Masofadan O‘qitish kunduzgi va sirtqi ta’lim turlarining xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shunday ekan, uni tashkil

qilishda sirtqi ta'lim turining ayrim elementlaridan ham foydalanish mumkin. O'tgan asr 80- yillarida abituriyentlarning kirish imtihonlariga tayyorlash maqsadida sirtqi tayyorlov kurslari tashkil etilgandi. Kurs xodimlari tomonidan abituriyentga tegishli fanlarda mutaxassislar ishlab chiqqan vazifa va topshiriqlarning variantlari pochta orqali yuborilardi. Ma'lum bir muddatda abituriyent o'zi bajargan vazifa va topshiriqlarni tekshiruv uchun kurslar manziliga jo'natishi yuborilgan vazifa va topshiriqlar o'qituvchi tomonidan tekshirilib, qisqa mulohazalar yozilib abituriyentga ma'lum qilinishi lozim edi.

Masofadan O'qitishni tashkil qilishdagi eng muhim masalalaridan biri professor o'qituvchilarni tanlashdir. Mazkur ta'lim turini amalga oshirish uchun o'qituvchilar eng tajribali va tashkilotchi professor – o'qituvchilar orasidan tanlab olinishi lozim. Chunki Masofadan O'qitish boshqa ta'lim turlaridan farqli bo'lib, uning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan o'qituvchining bilimdonligi, tashkilotchilik va boshqaruvchilik xususiyatlariga bog'liqdir. Chunki Masofadan O'qitish ga jalb qilinuvchi o'qituvchi bir paytning o'zida mohir pedagog, dono maslahatchi va tajribali boshqaruvchi bo'lishi kerak. Masofadan O'qitishni tashkil qilishning dastlabki davrida respublika aholisining demografik xususiyatlaridan kelib chiqib, tegishli viloyat yoki mintaqa markazlarida Masofadan O'qitish punktlarini yaratish kerak. Mazkur tuzilma joylarida Masofadan O'qitishni tashkil qilish bo'yicha mas'ul etib belgilanishi lozim. Keyingi bosqichlarda bir yoki turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan bir necha oliy ta'lim muassasalarida Masofadan O'qitish markazlari tashkil qilinishi mumkin.

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” maqsad va vazifalari bosqichma – bosqich ro'yobga chiqarilishida zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlarning roli muhim ahamiyat kasb etishi hammaga ayondir. Zamonaviy axborot texnologiyalariga: multimediya, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, bir alifbodan ikkinchi bir alifboga o'tkazish, kompyuterli test nazorati, skaner texnologiyasi, internet, elektron pochta, Web – texnologiya, elektron virtual kutubxona, masofadan turib ta'lim berish, taqdim etish texnologiyasi, sun'iy tafakkur tizimlari va boshqalar kiradi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to'liq amalga oshishidan ko'zlangan maqsadlarning naqadar ezgu ekanini inobatga olsak, bugungi kunga kelib o'qitish tizimlarining har biri jabhasida ilg'or texnologiyalardan foydalanish zarurati alohida dolzarblik kasb etayotganini sezish qiyin emas. Hammamiz guvohimizki, kundalik hayotimiz va istiqbolimiz ravnaqi uchun muhim ehtiyoj sanalmish tom ma'nodagi ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarining jalb etilishi tobora oldingi o'ringa chiqib borayapti. Buni ko'plab maxsus ta'lim muassasalari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va yetakchi oliy o'quv yurtlari hamda akademiyalar misolida ko'rish mumkinki, ayni kunlarda ulardagi o'quv jarayonini, masalan, bilim olish samarasini o'zgartirishga sarflanadigan vaqtning keskin qisqarishida va bilimlarni xotirada olib qolishning keskin ortishida namoyon etuvchi multimedia vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

1-bosqich. Bu bosqich bolalar uchun “Tanishuv bosqichi” bo'lib hisoblanadi. Bu bosqichda asosiy muammo Respublikamizda hozirda faoliyat ko'rsatib turayotgan maktabgacha tarbiya muassasalarini kompyuter bilan jihozlash kerak. Bolalar maktabgacha tarbiya muassasasida yosh avlodni o'yinlar, multfilmlar,

kalkulyator hisoblashlari, arifmetik hisoblashlar, turli xil dasturlarni o'rgatuvchi bolalar ensiklopediyalari, dam olishlari uchun bolalar musiqasi kabi qiziqarli dasturlar kiritib o'rgatish kerak bo'ladi.

2-bosqich. Bu bosqich asosan oilasida kompyuteri bo'lgan shaxslarga taalluqlidir. Hozirgi vaqtda Respublikamiz aholisining oila hisobida oladigan bo'lsak, ko'pchilik xonadonlarida kompyuter bor. Shuning uchun ham bu bosqichni "Jonlanish bosqichi" deb atash mumkin.

3-bosqich. Bu bosqichda maktab, litsey, kasb-hunar kolleji va boshqalar o'quvchilari to'liq kompyuter tizimiga kirib boradi. Shuning uchun ham bu bosqichni "adaptatsiya ya'ni, moslashuv" bosqichi deb atash mumkin.

4- bosqich. Bu bosqichda talaba kompyuter bilan to'liq ishlay bilishi kerak. Talaba kompyuter avlodini tanlash, qaysi tilda yozish, qaysi dastur tilida ishlash, qaysi operatsiya tizimlari bilan ishlash, printer, skaner, modem, faks – modem, kompyuter tarmoqlari, jumladan, Internet, elektron kutubxona va elektron o'quv qo'llanmalari bilan ishlash darajasiga yetilib tayyor bo'ladi. Shuning uchun ham bu bosqichni "Mustaqil ishlash va fikrlash" bosqichi deb atash mumkin.

5-bosqich. Quyidagi bosqichda mutaxassis tayyor bo'ladi. Bu bosqichni "yetuklik" bosqichi deb atash mumkin. Yetuklik bosqichida mutaxassis kadrlar to'g'ridan – to'g'ri korxona, tashkilot, muassasa va firmalarda hech qanday ikkilanmay, o'z sohasi bo'yicha ish boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Yuqorida taklif qilingan bosqichlarni amalga oshirishda ba'zi bir muammolar ham mavjud, ya'ni:

- a) bolalar maktabgacha tarbiya muassasasini kompyuter bilan ta'minlash;
- b) maktablarni to'liq kompyuter bilan ta'minlash.

Buning uchun hozirgi vaqtda Respublikamizda juda ko'p katta-katta korxonalarda hozirgi zamon axborot texnologiyalarning yangi avlodlari bilan ishlab kelinmoqda. Eski avlodlarini esa, ya'ni 286, 386 rusumli kompyuterlar ishlatilmay, turib qolganlari ham uchrab turadi.

Respublikamizda kasb-hunar kollejlari bilan oliy o'quv yurtlarini to'liq zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlangan desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Bu albatta, kelajak avlodni masofadan o'qitish tizimiga tayyorlash uchun yaratishga qulayliklar va shart-sharoitlar bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda Respublikamizdagi oliy o'quv yurtlarining aksariyat qismida hisoblash texnikasi (XT), avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ABT), muallim – muhandis, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari kabi mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Farg'ona politexnika institutida masofaviy ta'limni tashkil etish uchun olib borilayotgan ishlar haqida.

Masofaviy ta'lim ham sirtqi ta'lim bo'lib, faqat o'qituvchi bilan tinglovchi o'rtasidagi muloqot kompyuter, telekommunikatsiya qurilmalari va Internet orqali amalga oshiriladi. O'quv jarayonida tinglovchi o'quv materiallarini va topshiriqlarni

o'z kompyuteriga oladi, bajarilgan test va nazorat ishlarini o'qituvchiga Internet yoki elektron pochta orqali yuboradi. Bundan tashqari, tinglovchi o'z o'qituvchisi va uslubiyotchisiga savollar bilan murojaat qilishi va ularga o'z vaqtida javob olishi mumkin.

Farg'ona politexnika instituti yetarli darajada kadrlar salohiyatiga va moddiy-texnikaviy bazaga hamda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va telekommunikatsiya tarmoqlaridan unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan holda masofaviy ta'limni tashkil qilish va uni qo'llashga oid ishlarni olib bormoqda. Masofaviy ta'limni tashkil qilish va o'quv jarayoniga tatbiq qilish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilgan. Tadbirda ko'zda tutilgan reja asosida institutda masofaviy ta'limni tashkil etish bo'yicha ishlar quyidagi to'rt yo'nalish bo'yicha bo'lingan: Masofaviy ta'limda ishtirok etuvchilar bilan olib boriladigan tashkiliy va o'quv uslubiy ishlar.

Masofaviy ta'limda qo'llaniladigan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalar bilan tanishish, o'rganish va kerakli texnikaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan kompyuter va dasturiy majmuani yaratish bo'yicha ishlar. Masofaviy ta'lim uchun o'quv uslubiy materiallarini yaratishga oid ishlar. Masofaviy ta'limda qo'llaniladigan o'quv materiallari texnologiyasini o'rganish va uni joriy qilish bo'yicha ishlar. Qurilayotgan jamiyat XXI asrda axborot jamiyatiga aylanib borishi kerak. Bu yo'lda axborot savodxonlik targ'iboti iqtisodiy va huquqiy savodxonlikni o'zida qamragan holda ma'naviy jamiyatimiz kishilari orasida keng yoyiladi. Bunda interaktiv ta'lim kuchga kiradi va binobarin, mazkur ta'limning pedagogikasi shakllanadi. Interaktiv ta'lim o'qitishning, muloqotning distant uslubida, qolaversa, bu usulni amalga oshiruvchi bir qancha interaktiv (audio, video, elektron anjumanlar, tele va ovoz kommunikatsiyalari, yerning sun'iy yo'ldoshlari orqali o'zaro aloqa va b.) va nointeraktiv texnologiyalar vositasida olib boriladi. Kelajakda umumrivojlanishning yetakchi jabhalaridan bo'lib qoluvchi interaktiv masofaviy ta'limning ommaviylashishida Internet "on-line" ning roli, telekommunikatsiyalarning o'rni, barcha insonlarning Internetga barobar ochiq tashrif eta olishi uchun ajoyib yo'lak WWW (Web) texnologiyasini yaratgan olim Tim Berners Lining xizmati beqiyosdir.

Dunyoda interaktiv ta'limning ko'plab bazalari vujudga kelayapti, jumladan, Britaniya Ochiq Universitetiga qarashli masofaviy ta'lim Umumjahon markazining ma'lumotlar bazasini misol qilib keltirish mumkin. Distant uslubida o'qitishning Xalqaro Kengashi faoliyat ko'rsatyapti, "D – Learning" – masofaviy ta'lim olayotgan tinglovchilarning soni kun sayin ortib borayapti. Masofadan turib o'qitish uslubining tafsiloti, uning ta'limdagi ijodiylik, mustaqil o'rganish imkoniyati, ilm olish uchun vaqtni taqsimlashdagi erkinlik kabi ko'plab afzalliklari mamlakatimizdagi yirik olimlarning pedagogik izlanishlarida aks ettirilgan, risolalarida keng yoritilganini e'tirof etish joiz.

Shunisi quvonarliki, mamlakatimizda ziyolilarning, jumladan, pedagoglarning, yangi avlodning tarbiyasiga e'tiborli barcha kishilarning, ayniqsa, tinglovchi yoshlarning zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari vositasidagi interaktiv ta'limga, xususan, on-line ta'limiga, Internetga qiziqishi va intilishlari katta.

Yurtimiz O'zbekiston kuchli iqtisodiyotga ega bo'lgan, ezgu istiqbolli huquqiy davlat qurar ekan, xalqimizning axborot savodxonligini hamda huquqiy madaniyatini oshirish hayot va zamon talabidir. Bu talabni – maqsadni ro'yobga chiqarishda asoslari endi shakllanayotgan interaktiv ta'lim xizmatga kirishishi kerak. Masofaviy o'qish ta'lim berishda ikki asosiy yondashishni izohlab beradi – bular kengaytirish va transformatsiya modellaridir. Kengaytirish modelida o'qitish texnologiyasi hozirgi ana'naviy usuldan deyarli, farq qilmaydi.

Transformatsiya modeli o'qituvchi va tinglovchi hamkorligi uchun axborot – kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini o'zida mujassam qiladi. Masofaviy ta'limning bu zamonaviy usul va texnologiyalari nazariy va amaliy ta'lim pedagogikasiga virtual sinf, o'quv telekommunikatsiya loyihalari, koordinator, teskari aloqa, moderator, muloqot texnologiyasi, kompyuter aloqasi, telekonferensiya kabi yangi tushuncha va terminlarni olib kirdi. Bu texnologiya deyarli raqamli aloqaga asoslangan bo'lib, o'z ichiga multimediya dasturlari va gipermediyalarni olib, bu esa o'quvchiga axborot massivlarini o'zlashtirish tartibini nazorat qilish usullarini kuzatib boorish imkonini beradi.

Masofaviy o'qishning ko'p muhitliligi o'quv dasturlarini rejalashtirish va kurslarini ishlab chiqish tamoyillarida o'z aksini topadi. Masofaviy ta'lim tinglovchilarni talablarini qondirishga yo'naltirilib, texnologiyalarni turli – tumanliligiga ustivorlik beradi.

Hozirgi kunda masofaviy ta'lim AQShda mukammal shakllangan bo'lib, uning vujudga kelishi 1970 yillar oxiriga borib taqaladi. Avvalida masofaviy ta'lim sohasida o'quv muassasalari yakka holda faoliyat olib bordilar. 1980 yillarda yo'ldosh teleko'rsatuvlar rivojlanib borishi bilan, bu o'quv kurslari ustida bir necha o'quv muassasalari hamkorlikda ish olib bordilar. Global kompyuter tarmoqlarining shiddat bilan rivojlanishi inson faoliyatining hamma sohasiga, shu jumladan, ta'lim olish sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Shu tufayli ayni damdagi masofaviy ta'lim zamonaviy axborot – kommunikatsiyalar, jumladan, internet tarmog'i imkoniyatlaridan keng foydalangan holda olib borishga asoslanadi. AQSh ta'limi tarixida masofaviy o'qitish milliy universitetlari, masofaviy ta'lim yordamida olingan yangi mutaxassisliklar, ilmiy darajalar vujudga kelgan. Misol qilib, Kolorada shtati davlat universitetining ma'muriy ish yurituvchi magistri, Chikago davlat universiteti informatika, Jorj Vashington Universitetining ta'limni boshqarish, Penselviya davlat universitetining akustika magistri va Merilend Universitetining yadro fizikasi bakalavri darajalarini ko'rsatish mumkin.

Masofaviy ta'lim respublikamizda ta'lim tizimiga yangi kirib kelayotgan usul bo'lib, hozirgi kunda bu jarayonga jiddiy e'tibor berib kelinmoqda va uning asoslari yaratilmoqda. Barcha oliy o'quv yurtlarida kompyuter sinflari tashkil etilgan bo'lib, ularning ko'p qismi internet global tarmog'iga ulanish asosida faoliyat ko'rsatmoqda.

Toshkent moliya institutida 2000 yil 1 -sentabrdan boshlab, iqtisodiy ta'limga Masofaviy o'qitish komponentlarini kiritish tajriba loyihasi tatbiq qilishga kirishilgan. Institutning kunduzgi va sirtqi o'quv shakllarining barcha fakultetlarida kompyuter sinflari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. Birinchi bosqichda kredit – iqtisod fakulteti Internet tarmog'iga ulangan bo'lib, qat'iy reja asosida professor –

o'qituvchilar va tinglovchilar undan bilim va malakalarini oshirishda o'z faoliyatlarida foydalanib kelmoqdalar. Tinglovchilarning virtual kitob, virtual kutubxona to'g'risida tasavvurlari kengayib bormoqda.

Institutda masofali o'qish uslubiy materiallari (matnlar, audio va video darsliklar, elektron darsliklar) ayrim fanlarni o'qitishda foydalanilmoqda va yaxshi natija bermoqda. Masofadan o'qitishda asosiy e'tiborni o'quv – uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratish lozim. O'quv uslubiy materiallarning sifati Masofadan o'qitish sifatining eng asosiy omillaridan biridir. Xulosa qilib aytganda, Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida masofaviy o'qitish tizimini tatbiq qilish, uni yanada yaxshi yo'lga qo'yish uchun chet davlatlarning tajribasini o'rganmoq hamda multimedia – elektron darsliklar, elektron kutubxonalar, audio va video darsliklar yaratishga jiddiy e'tibor bermoq lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlarni o'tkazishda yangi axborotlar texnologiyalaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning ikkinchi bosqichida ta'lim muassasalarining moddiy texnik va axborot bazasini mustahkamlash hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor berilgan. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari hamda akademik litseylarda yangi pedagogik texnologiyaning masofadan o'qitishni joriy qilish borasida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilyapti.

Namangan muhandislik – pedagogika institutida ham masofadan o'qitishni amalga oshirish ustida ilmiy – uslubiy ishlar olib borilyapti. Masofaviy ta'lim- nafaqat tinglovchilarga masofadan turib ta'lim berishni, balki ularning olgan bilimlarini masofadan turib nazorat qilishni ham anglatadi. Hozirda institutning yetakchi mutaxassislari va ilmiy izlanuvchilari viloyatdagi bir nechta kasb-hunar kolleji va akademik litseylarga masofadan turib ta'lim berishni yo'lga qo'yish ustida izlanishlar olib borishmoqda. Bu o'rinda kasb-hunar kolleji, akademik litsey va sirtqi bo'limda ta'lim olayotgan tinglovchilar va o'quvchilarning olgan bilimlarini masofadan turib nazorat qilish va baholash natijalarini muhofaza qilish dolzarb muammolardan biridir. Barcha rivojlangan mamlakatlar kabi respublikamizda ham tinglovchilar bilimini nazorat qilishda test usulidan foydalanish samarali natijalar bermoqda. Shuning uchun, masofadan turib tinglovchilarning bilimini test asosida baholash uchun dastur ta'minoti yaratilgan. Yaratilgan dastur ta'minoti baholanayotgan tinglovchining kompyuteriga o'rnatilgan bo'lib, testning ma'lumotlar bazasi esa shu kompyuterning o'zida yoki institutning serverida joylashgan bo'lishi mumkin. Yaratilgan dastur ta'minotidan foydalanish jarayonida testning ma'lumotlar bazasini va baholash tizimini muhofaza qilish muammosi vujudga keladi. Bu muammoni hal qilish uchun ma'lumotlarni kriptografik usulda muhofazalovchi dastur ta'minoti yaratilgan. Himoya dasturi ma'lumotlarni DES va RSA standartlarining imkoniyatlarini umumlashtirgan holda muhofaza qiladi. Testning ma'lumotlar bazasi test kirituvchi dastur ta'minotining tarkibiga kiruvchi himoya dasturi asosida kodlangan. Baholovchi dastur esa, ishlash davomida himoya dasturi asosida testning ma'lumotlar bazasini qayta kodlaydi, testni o'tkazadi va testning natijasini himoya dasturi asosida kodlab institut serveriga uzatadi. Agarda baholovchi dastur institut serveri bilan aloqa o'rната olmasa, toki aloqa o'rnatilib testning kodlangan natijasi institut serveriga uzatilgunga qadar,

natijani o'zida saqlab turadi va aloqa o'rnatilishi bilan uni uzatib yuboradi. Yuqorida tuzilgan dastur ta'minotlari Delphi obyektli dasturlash muhitida yaratilgan. Ushbu dasturlar NamMPI va ushbu institut qoshidagi "Do'stlik" akademik litseyi o'rtasida sinab ko'rilgan.

Tinglovchilarni o'qitishni yanada yaxshilash va o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarni tatbiq qilish bo'yicha Samarqand davlat universitetida loyiha ishlab chiqilib uni keng tatbiq qilish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun Samarqand davlat universitetida mavjud markazlar va kompyuter sinflari negizida yagona "Axborot texnologiyalarni tatbiq qilish va o'quv diagnostika" markazi tashkil qilingan. Bugungi kunda bu markaz qoshida "Masofali ta'lim", "O'quv diagnostika", "Xalqaro ilmiy loyihalarni tuzish" va boshqa bo'limlar muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Bundan tashqari, universitet bo'yicha o'n beshta kompyuter sinflari faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtga kelib, beshta yo'nalish bo'yicha multimediyali elektron darsliklar tayyorlangan bo'lib, yana o'nta yo'nalish bo'yicha yaqin kunlar ichida tayyorlanish arafasidadir. Barcha markazlar xalqaro internet tizimiga ulangan bo'lib, universitet o'qituvchilari va tinglovchilarining bu tizimdan foydalanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Shu bilan birgalikda, yangi axborot texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng tatbiq qilish, tinglovchilarga virtual stendlardan, video konferensiyalardan, multimediyali elektron darsliklardan foydalanishlariga to'la sharoit yaratish, ma'lumot almashishning tezligini oshirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Masofadan o'qitishni keng joriy etish va xalqaro internet tarmog'ida ishlash tezligini oshirish maqsadida universitetda mavjud barcha kompyuterlarni optik aloqali yagona lokal tarmog'iga ulash joriy etilmoqda. Hozirgi kunda universitetda "Internet"ning xalqaro axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyatini beradigan bo'limlardan o'ndan ortig'i muntazam faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirda rivojlangan mamlakatlarda masofadan o'qitish orqali ham odamlarning bilim saviyasi oshib bormoqda hamda mo'maygina daromad ham olinmoqda. Bu borada, elektron biznesning roli kattadir. Har bir kishi o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotni internet orqali topib olishi mumkin. Agarda bu ma'lumot moddiy tarzda bo'lsa, uni shu o'z manzilingizni o'zida pochta xizmati orqali qabul qilib olishingiz mumkin.

Masofadan o'qitishning yangi bir usullaridan biri bu bilim dargohlarida tashkil qilinadi. Bu usulda bir ma'ruzachi yuzlab borinki minglab tinglovchilarga bir vaqtning o'zida ma'ruza o'qishi va shu vaqtning o'zida tinglovchilar bilan fikr almashishi, savollarga javob berishi mumkin. Bu usul yuqori texnikalardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Ya'ni har bir o'quv xonalari mikrofon, videokamera, video proyektor va video-audio uskunalari bilan ta'minlangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu usulda ishlash nafaqat bir bilim dargohi, nafaqat bir davlat, borinki butun bir davlatlar orasida ham qo'l keladi. Ya'ni bir ma'ruzachini ma'ruzasini kommunikatsiya yordamida boshqa davlatlar tinglovchilari ham tinglashi mumkin bo'ladi.

Oddiy darslikdan elektron darslikning afzallik tomonlaridan biri u "intellektual" kuchga ega bo'lishi bilan bir qatorda kerakli ma'lumotlarni o'z vaqtida va joyida taqdim etish imkoniyatlari bilan farqlanadi. Elektron darslik ma'lum bir predamet bo'yicha hamma tegishli o'quv materiallarini o'zida ifoda etgan bo'lishi kerak. Uning intellektual darajada bo'lishi esa o'z navbatida, oddiy darslikka nisbatan bir qator

afzalliklarni tug'diradi. Masalan, ma'lumotlarni tez izlab topish, mavzularni o'zlashtirish darajasini multimedia elementlari yordamida amalga oshirish va hokazo.

Har bir elektron darslik alohida ko'rinishda bo'lishi va ma'lum bir standart talabga javob berishi lozim. Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlarining uskunaviy vositalari asosida yaratilayotgan elektron darslikning strukturasiga to'xtalib o'tamiz.

Elektron kitobning strukturasini.

Elektron darslikning bahosi uning mavzularida berilayotgan ma'lumotlarning mazmunini boyitishga bog'liq. Elektron darslik bo'yicha berilayotgan materiallarni quyidagi uch ko'rinishda amalga oshirish mumkin:

- matn ko'rinishida bayon qilish. Bu yerda qog'ozdagi darslikdan farqli ravishda rasmlar, grafiklar, jadvallar. Ya'ni ularning animatsiya ko'rinishidagi elementlari qatnashishi mumkin;
- elektron darslikning strukturasini tushunib olishga imkoniyat yaratadigan vositalar orqali;
- o'quv materiallarini savollar ko'rinishida ifoda etish va ular asosida o'z bilimni nazorat qilish vositalari bazasida;
- elektron darslik (E D) ning strukturasini quyidagi elementlarni o'z ichida ifoda etishi lozim;
- muqova;
- mundarija;
- qisqacha annotatsiyasi;
- Elektron Darslikning "to'liq bayoni"
- Elektron Darslikning qisqacha bayoni (masalan, sxema ko'rinishida);
- asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati;
- bilimni nazorat qilish mexanizmi;
- matn fragmenti bo'yicha izlash amalini bajarish;
- mualliflar ro'yxati va ular haqida ma'lumot;
- atamalar ro'yxati;
- Elektron Darslik bilan ishlash uchun ma'lumotlar tizimi.

Elektron Darslikning muqovasi imkoniyat darajasida chiroyli bo'lishi kerak. Buning uchun uni grafika va multimedia, animatsiya kabi elementlar bilan boyitish maqsadga muvofiq. Elektron Darslikning muqovasida darslikning nomi, yuqori tashkilot haqida ma'lumot (masalan, vazirlik), mualliflik huquqi, yaratilgan vaqti, Elektron Darslikni yaratgan tashkilotning nomi, mualliflari haqida qisqacha ma'lumot. Bu ma'lumotlarni ma'lum bir qismi (mualliflar haqida ma'lumot, Elektron Darslikni yaratgan tashkilot, mualliflik huquqi) kabilar maxsus tugmalar yordamida amalga oshiriladi.

Zamonaviy elektron qo'llanmalardan biri bo'lgan elektron darslik multimediali mahsulot bo'lib, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni bajarishda o'qitishni samarali tashkil etish va tinglovchilarning ijodiy fikrlash doirasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday darsliklardan uzluksiz o'qitish rejimida foydalanish tinglovchilar bilimi sifatini oshirishga yordam beradi.

Biror-bir fan bo'yicha elektron qo'llanma yaratilyotganda kursning ajratilgan qismi amaliy (mashqlar) va nazorat (test savollari) mashg'uloti, kursning katta bo'limi esa testli mashg'ulot va sinov bilan tugashi lozim. Elektron qo'llanmadan o'quv jarayonida foydalanilganda quyidagi afzalliklarga ega bo'linadi:

- tanlangan fan yoki kurs bo'yicha bayon etilayotgan axborotlar to'plami yaxshi strukturaga ega bo'lib, tugallangan fragmentlarni tasvirlaydi;
- o'quv kursining strukturali elementi gipermatnli, ko'rgazmalilik, audio va videoizohli yoki videoko'rgazmali kalitli mavzulardan tashkil topadi va malakali o'qituvchi yoki ma'ruzachi o'qilayotgan fandagi o'z fikrlarini bildiradi hamda oddiy darslikda o'zlashtirish qiyin bo'lgan fikrlarni izoxlaydi;
- gipermediali grafikadan foydalanib, darslikka tegishli murakkab model va ko'rgazmalarni tushunarli va sodda shaklda tasvirlash imkoniyatidan foydalanadi;
- elektron qo'llanma ko'p oynali interfeysga ega bo'lib, har bir oynada o'zaro bog'langan axborotlar joylashtiriladi;
- darslikda matnli qism ko'p sonli kesishgan gipermatnli bog'lanishga ega bo'lib, zarur axborotni izlash vaqtini qisqartiradi va qo'shimcha videoaxborot yoki animatsiyali kliplardan kursning matnli qismlarini bayon etish mushkul bo'lgan bo'limlarini ifodalashda to'liq foydalaniladi;
- elektron qo'llanmada foydalanuvchi tomonidan amallarning to'g'ri bajarilishi, yordam olish jarayoni ovozli signallar bilan, axborotni boshqa ko'rinishlarini esa multimediali vositalarning imkoniyatlaridan foydalaniladi;
- axborotning sifati, ishonchliligi va uning strukturasiga talab oshadi;
- elektron qo'llanma yordamida kurs ishlari va referatlarini tayyorlash imkoniyati mavjud bo'lib, bunda zamonaviy kompyuter va pedagogik texnologiyani birlashtirib yangi ko'rinish va sifatidagi qo'llanmalarni yaratish mumkin.

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinib turibdiki, hozirgi zamonaviy pedagogikada elektron qo'llanmalardan foydalanish asosiy masala bo'lib qolmoqda. Elektron darslik va ensiklopediyaning jahon ta'lim standartiga to'liq javob bera olishi tinglovchilar bilim sifatini oshirishda ahamiyati muhim ekanligi bayon etiladi. Bugungi kunda amaliy jihatdan elektron darslik va ensiklopediyaga tegishli ishlar juda kam ishlab chiqilgan. Hozirgi paytda bilim va axborotlarni odatiy darslik va ensiklopediya ko'rinishidan elektron shakliga o'tkazish va samarali qabul qilish imkoniyatini individuallashtirish masalalari davr talabi bo'lib qolmoqda.

Ta'lim tizimida informatika fanining qo'llanilish yo'nalishlaridan biri yuqori darajadagi samarali va sifatli multimediali elektron darslik va ensiklopedik nashrlarni ishlab chiqishdan iborat. Elektron darslikning qo'llanilish soxasi keng bo'lib, ayniqsa mustaqil ta'lim olish va masofali o'qitish jarayonida samarali natijalar beradi. Hozirgi paytda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan elektron darslik va ensiklopediyalar xavaskorlik va kasbiy yo'nalish xarakterida bo'lib, kompakt-disklarda ishlab chiqilgan. Bunday nashrlar Internet tarmoqlarida ham paydo bo'lmoqda. Bunday nashrlarni yaratishda kitob nashriyotlari, dasturchilar, davriy nashr jurnalistlari va ilg'or o'qituvchilar faol ishtirok etishmoqda. Elektron darslik va ensiklopediyalar qo'llanma sifatida turli fan o'qituvchilari tomonidan o'quv jarayonida foydalanishlari mumkin. Elektron darslik o'qituvchi yordamida yoki mustaqil ravishda o'quv kursi va uning katta bo'limini o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Darslik quyidagi qismlardan tashkil topishi lozim:

- kursning asosiy qismini bayon etuvchi taqdimotli tashkil etuvchi;

- olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar;
- tinglovchilar bilimni obyektiv baholash imkoniyatini beruvchi testlar.

Elektron darslik yordamida yaxshi natijalarga erishish uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

- qisqa vaqt oralig'ida amaliy teskari aloqani ta'minlay olish va zarur axborotni tez topishga yordam berish;
- gipermatnli tushuntirishda ko'p marotabali murojaat etish orqali vaqtni tejash;
- matnni tasvirlashda multimediali texnologiyaning ko'rgazmalilik va yetarlilik prinsipini namoyon bo'lishi;
- konkret foydalanuvchiga mos keluvchi tezlikda aniq biror bo'lim bo'yicha bilimni tekshirish va bajarish imkoniyati;
- zarur o'quv axborotini muntazam ravishda yangilab turish.

Hozirgi kunda Farg'ona politexnika instituti yetarli darajada kadrlar salohiyatiga va moddiy – texnikaviy bazaga hamda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va telekommunikasiya tarmoqlaridan unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan holda masofaviy ta'limni tashkil qilish va uni qo'llash bo'yicha ayrim ishlarni olib bormoqda.

Masofaviy ta'limni tashkil qilish va o'quv jarayoniga tatbiq qilish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilgan. Tadbirda ko'zda tutilgan reja asosida institutda masofaviy ta'limni tashkil etish bo'yicha ishlar quyidagi to'rt yo'nalishga bo'lingan:

- masofaviy ta'limda ishtirok etuvchilar bilan olib boriladigan tashkiliy va o'quv uslubiy ishlar.
- masofaviy ta'limda qo'llaniladigan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalar bilan tanishish, o'rganish va kerakli texnikaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan kompyuter va dasturiy majmuani yaratish bo'yicha ishlar.
- masofaviy ta'lim uchun o'quv uslubiy materiallarini yaratish bo'yicha ishlar.
- masofaviy ta'limda qo'llaniladigan o'quv materiallarini yaratish texnologiyasini o'rganish va uni joriy qilish bo'yicha ishlar.
- masofaviy ta'limda ishtirok etuvchilar bilan olib borilayotgan ishlar, asosan, uch guruhga bo'lingan holda amalga oshirilib kelinayapti, ushbu ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning asosiy vazifalari quyidagicha ko'rsatilgan:
- o'qituvchining vazifalari;
- o'quv kursini ishlab chiqish;
- fanni o'rganish bo'yicha yo'riqnomani ishlab chiqish;
- fan bo'yicha maslahatlarni berish va zaruriy yordam ko'rsatish;
- o'qitish natijalarini nazorat qilish;
- tinglovchilarning o'quv-bilim olish faoliyatini tashkiliy boshqarish;
- o'quv – uslubiy materiallarni tinglovchi tomonidan to'g'ri va samarali foydalanishda unga yordam berish;
- tinglovchilarga kursning o'quv – uslubiy ta'minlanishi masalalari bo'yicha guruh va individual shakllarda maslahatlarni o'tkazish;
- o'quv jarayoni jadvalining bajarilishini nazorat qilish;
- tinglovchilar o'rtasidagi o'quv aloqalarini ta'minlash.
- tinglovchining vazifalari:
- turli shakldagi o'quv materiallari va o'quv – texnologik vositalardan foydalangan

holda mustaqil ta'lim olish;

- o'qituvchi, uslubchi (tyutor) va boshqa tinglovchilar bilan muloqot qilishi.
- tavsiyalar institutda masofaviy ta'limni tashkil etish jarayonida keng miqyosda qo'llanilmoqda.

Masofadan o'qitish bugungi kunda ma'lum bir yuksalish bosqichiga ko'tarilmoqda. Buning albatta, obyektiv sabablari mavjud. Ta'lim tizimini tashkil etish har bir davrda turlicha bo'lishi ijtimoiy tizim, mafkuraviy qarashlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Ijtimoiy – iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy rivojlanish davomida ta'lim tizimi maqsadiga erishish jarayoniga nisbatan turlicha pedagogik yondashuvlar mavjud bo'lgan. Demak, ta'lim jarayonini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatdan takomillashib borishi bilan masofadan o'qitish zamonaviy tus ola boshladi. Chunki ta'lim tizimining bosh maqsadi ham yetuk, yuksak malakali, ma'naviyatli, ma'rifatli, mustaqil fikr yurita oluvchi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Bugungi kunda masofadan o'qitish sohasidagi ilg'or texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o'zlashtirishimiz, ularni o'zimizga mos holda tatbiq etishning dasturliy ta'minotini ishlab chiqishimiz kerak bo'ladi.

Navoiy Davlat Konchilik instituti professor – o'qituvchilari jamoasi masofadan o'qitish texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llash borasida katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqda. Masalan, Yevropa va O'zbekiston o'rtasidagi TESIS TEMPUS proyeksi bo'yicha institut professor- o'qituvchilari bir necha o'ynalishlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Gap shundaki, zamonaviy axborot texnologiyalarni o'zlashtirish va u yoki bu sohaga oid eng yangi yutuqlarni aks ettirgan o'quv material – darslik yoki o'quv qo'llanmasining mavjudligi, bu hali to'laqonli o'quv jarayoni tashkil qilindi degan so'z emas. Zero, o'quvchi yoki tinglovchi bu o'quv materialini chuqur o'zlashtirish uchun, uni ayrim muhim nazariy bo'limlar, batafsil ishlab chiqilgan, o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarini mazmunan va vaqt bo'yicha yagona tizimga mujassamlashtirgan, maqbullashtirilgan va yo'naltiruvchi tisdagi o'quv dasturi, amaliy mashg'ulot materiallari to'plami, kompyuter vositasida modellastirilgan laboratoriya ishlarining to'plami, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar va masalalar, topshiriq va masalalarni bajarish va yechish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, nazorat savollari, testlar va ularning javoblari, masalalarni yechish chog'ida zarur bo'ladigan doimiy ma'lumotnomalar mazkur fan bo'yicha eng ko'p ishlatiladigan asosiy tushuncha va atamalarining izohli lug'ati, u yoki bu masalalar chuqur yoritilgan adabiyotga havolalar ko'rinishida tarkibiy bo'laklarga ajratish, bu bo'laklarning majmuini shakllantirish va shu tariqa o'quv jarayonida bilvosita dialog ish rejimini tashkil etish, boshqacha qilib aytganda, faol pedagogik muhit yaratish ham zarur bo'ladi.

Bu o'rinda o'quv adabiyotiga qo'yiladigan talablar – ilmiylik, tizimlilik, o'quv materialini tushunarli va ravon tilda bayon qilish kabi talablarni ta'minlash, shuningdek, samarali pedagogik usullar sifatida e'tirof etilgan muammoli o'qitish, o'quvchi va tinglovchilarning mustaqil ishi va jamoaviy tafakkur faoliyatini tashkil etish kabi jihatlarni ro'yobga chiqarish alohida ahamiyatga ega.

Elektron darslik – kompyuterli o'quv uslubini qo'llash va fanga oid o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishiga asoslangan o'quv adabiyoti bo'lib, tinglovchilarning mustaqil bilim olishlari, hamda masofali o'qitishni amalga

oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunda elektron darsliklarning 4 ta toifasi mavjud bo'lib, ulardan foydalanishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- yangi axborot – ta'lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot- pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini, sifati va unumdorligini oshirish;

- uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy o'quv manbalari – elektron o'quv darsliklarini keng qo'llash, ularning ma'lum ma'noda kutubxonalarni tashkil etish, ta'limning masofadan o'qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kirish.

Taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o'zgarmoqda. Axborot texnologiyalar jamiyat axborot resurslaridan oqilona foydalanishning eng muhim usullaridan biri bo'lib, hozirgi kunda u bir nechta bosqichlarni bosib o'tdi. Bu bosqichlarning almashinuvi ilmiy texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi, ma'lumotlarni qayta ishlashning yangi texnik vositalari paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Insonning bilim darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylanmoqda. Jumladan, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda ya'ni, ta'lim tizimida bugungi kunda Masofadan o'qitish uslubi qo'llanilmoqda. Masofadan o'qitish uslubi bu sirtqi ishning yangi bir usulidir. Masofadan o'qitish bu mustaqil ish demakdir. Mustaqil ish har bir insonning mustaqil fikrlash, holatini baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bugungi kunda insoniyatni huquqiy ongini o'stirishda, qonun ustivorligini oshirishda, qonunlarni amaliyotda qo'llanishi, har bir fuqaro o'zini – huquqini bila olishida, qonunchilikni ya'ni qonun, qaror va farmonlarni xalqimizga, oddiy fuqarolarimizga keng yoritib berishda masofadan o'qitishning yangi texnologiyalaridan foydalanish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Toshkent Davlat Yuridik Instituti, Qarshi Davlat Universiteti va Guliston Davlat Universitetlari bilan birgalikda “Siz qonunni bilasizmi” mavzusida bo'lib o'tgan videokonferensiya “dengizdan bir tomchi” bo'lsa ham, lekin masofadan o'qitishning qanchalik foydali va kerak ekanligini namoyon qildi. Yurtimizda qabul qilinayotgan va hayotga tatbiq etilayotgan har bir qonunlarni xalqimiz ongiga singdirib borishda, tinglovchilarga ta'lim berishda masofadan o'qitish, videokonferensiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tan olish kerakki, hozirgi vaqtda yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi tobora susaymoqda. Yoshlarni hozirda kompyuter va u bilan bog'liq bo'lgan masalalar ko'proq o'ziga jalb etmoqda. Shu borada o'qitish, ta'lim berish ayni qo'l keladigan yo'nalishdir. Bunda o'qituvchi kutubxonalardan o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotni izlab qimmatli vaqtini ketgazmaydi. Kompyuter orqali u o'ziga kerakli ma'lumotni osongina topib o'rganishi mumkin. Bu borada ta'kidlab o'tish lozimki, Internetda ishlash masalasi yetarli bo'lishi darkor.

Kompyuter va Internet tarmog'ida ishlash malakasi yuqori bo'lgan har bir tinglovchi ham, u yerda yozilgan yoki chizilgan ma'lumotni to'laligicha tushunishi oson emas. Bu borada Internet tarmog'ida yaratilyotgan elektron usuldagi sahifa yoki

o'quv dasturlari ommabop bo'lishi, ya'ni hammaga birdek tushunarli bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir. Internet sahifalari hozirda Macromedia FLASH, HTML, Java Script, Macromedia Direktor usullarida yozilmoqda va yaratilmoqda. Bu har bir usulning o'ziga yarasha afzalliklari bor. Agarda biz FLASH dasturi yordamida yaratilayotgan Internet sahifa va dasturlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, avvalambor uning yaratilishi vaqti qisqa va osondir.

Yaratilayotgan mahsulotni har xil animatsiyalar bilan boyitish, o'quvchi uchun qulayliklar yaratish va qiziqarli qilish FLASH dasturida ko'zda tutilgan va ayni vaqtda asosiy maqsadga muvofiqdir. Lekin ta'kidlab o'tish joyzki, mahsulotni FLASH ni yoki boshqa dastur orqalimi, yaratayotgan shaxs, bu borada yetarli bilimga va fantaziyaga ega bo'lishi joizdir.

Toshkent shahar pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida ham masofadan dars berish bo'yicha qator amaliy ishlar bajarib kelinmoqda. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda institutda 96 ta kompyuter mavjud bo'lib, ularning aksariyati Internet tarmog'iga ulangan. Masofadan o'qitish bo'limida tinglovchilar uchun darslar uch yo'nalishda tashkil etilgan.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga mo'ljallangan birinchi yo'nalishda asosan, informatikaning Word dasturi bo'yicha dars beriladi. Ikkinchi yo'nalishda Paint muharrirlik dasturi bo'yicha, rasm chizish, bo'yash o'rgatiladi. Internetda ishlashni o'rganishga mo'ljallangan uchinchi yo'nalishda o'qituvchilarga Internetdan qanday axborot olish va uzatish haqidagi bilimlar beriladi. Bundan tashqari, ushbu bo'limda aniq tabiiy va ijtimoiy fanlar o'qituvchilarining malaka oshirishlariga mo'ljallangan alohida dasturlar ishlab chiqilgan. Hozirda barcha fanlardan ma'ruza matnlarining elektron versiyalari yaratilgan. Hatto tasviriy san'at fanidan ham shunday versiyalar mavjud. Bo'limni fizika-matematika fanlari nomzodi B.Olimov boshqaradi. Ayni paytda institutning masofadan o'qitish bo'yicha beshta tumanda tayanch maktabi bor. Bular S.Rahimov tumanidagi 242, Shayxontohur tumanidagi 276, Sirg'ali tumanidagi 7, Hamza tumanidagi 152 hamda Mirzo Ulug'bek tumanidagi 64-maktablardir. Hozir ushbu maktablarda jihozlash ishlari olib borilayapti. Yaqin kelajakda ushbu maktablarda masofadan o'qitish yo'lga qo'yiladi. Bundan tashqari, B.Olimovning aytishicha, mazkur bo'lim tomonidan masofadan o'qitish platformasi yaratilgan. Unga muvofiq avval muammo sanalgan o'qituvchilarni malaka oshirishga jalb qilishning yechimi topildi. Endilikda shaharda yigirma mingdan ziyod o'qituvchi bo'lsa; ularning qachon, qayerda malaka oshirganlari haqidagi ma'lumotlar to'plangan.

Masofaviy ta'lim ko'rinishlari

Virtual ta'lim tizimi

Virtual ta'lim tizimi ochiq kodli MOODLE platformasida ishlab chiqilgan bo'lib, masofaviy ta'limni tashkil etish va boshqarishga mo'ljallangan.

Virtual ta'lim portali 493ta tuzilmadan iborat. Har bir tuzilma bitta fan bo'yicha o'quv me'yoriy hujjatlar bilan bir qatorda, ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlarga uslubiy ko'rsatmalar, atamalar, adabiyotlar ro'yxati, test savollari, tarqatma

materiallar, baholash mezonlari, ta'lim jarayonini tashkil etish va uni boshqarishga qo'yilgan talablar va shu kabi axborotlar joylashgan. Hozirgi kunda universitetda o'qitiladigan fanlarning 40tasidan tuzilmalar yaratilib, ulardan o'quv jarayonidan foydalanib kelinmoqda.

Virtual university masofaviy ta'lim tizimi

Ushbu tizim talabalarni masofadan turib o'qitish mo'ljallangan. Talabalar ushbu tizim orqali ixtiyoriy vaqtda ixtiyoriy joyda turib mavjud elektron resurslardan foydalanishi, o'qishi, o'qituvchidan vazifa va takliflar olishi mumkin. O'qituvchi, doimiy ravshda resurslarni yangilab turishi va o'quvchilarining tashrifi va bajarilayotgan vazifalarini nazorat qilib turishi mumkin. Vazifalar o'qituvchi tuzigan testlar yordamida yoki laboratoriya ishlari turi bilan berilib boriladi. Plaformada ishlash sodda bo'lib jaxon standartlariga javob beradi.

Estudy masofaviy ta'lim tizimi

Estudy masofaviy ta'lim tizimi akademik litsey va kollej o'quvchilari, oliy ta'lim muassasi talabalariga masofadan turib on-layn rejimida ta'lim berish uchun yaratilgan tizimdir. Hozirda tizim orqali TATU talabalari va TATU qoshidagi akademik litseylar o'quvchilari uchun fizika va matematika fanlari interaktiv kurinishda olib borilmoqda.

O'zbekistonda chet tillarini o'rganish: tarixi muammolari va istiqbollari.

O'zbekistonda Sharq va O'vro'po tillarini o'rgatish o'rganishning o'tmishdagi axvoli, hozirgi kundagi muammolari va muayyan istiqboli jihatlari maqolaning muhokama obyekti tarzida tanlandi.

XIX arsning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan Rossiya istilosidan oldingi davrlarda mintaqa axolisi chet tillardan fors va arab tillarini o'rganib kelar edi. Ushbu tillar o'sha vaqtlarda xorijiy tillar nomi bilan yuritilmagan bo'lsa-da, yerli xalq uchun ona tili xisoblangan emas, ular fan, madaniyat, savdo va diplomatiya tillari vazifasini o'tab kelga.

Zabt etilgan hududlarda, malumki, bosqinchilar tili o'rgatilishi shart edi. Ta'lim rus tilida ilib borilgan maxalliy o'quv muassasalarida esa nemis, fransuz va ingliz tillar o'qitilgan, biroq ular yerli xalq vakillari uchun mo'ljallanmagan edi.

XX asrning birinchi choragiga kelib o'zbek maktablari o'quv rejasiga Ovro'po va Sharq tillari kiritildi. Lekin nemis, ingliz, fransuz tillarini o'qitishga qodir o'zbeklardan mutahassislar yo'q Elektron darsliki. Binobarin, xorijiy tillar o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida 1918-yil toshkent shaxrida Sharq tillari instituti tashkil qilindi. Ovro'po tillaridan o'qituvchi tayyorlaydigan Toshkent davlat chet tillar instituti ochildi.

Bunday xayrli ishlar, yani maxsus institutlarni ochilishi akademik V.V.Bartold, professorlar A.E.Shmidt, A.A. Semyonov,E.D.Polivanov kabi olimlar say-xarakatlari tufayli amalga oshirildi.

O'tgan asr o'rtalarida qator oliy o'quv yurtlari tarkibida roman va german tillari fakultetlari tashkil etildi. Ularni bitirib chiqqan mutaxassislar ingliz, nemis va fransuz tillaridan dars bera boshladilar.

60-yillar boshida O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti qoshida Chet tillar o'qitish metodikasi sektori ish boshladi. Ilmiy hodimlar o'quv dasturlari original darsliklar yaratishga astoydil kirishib ketdilar. O'zbek maktablari uchun birinchi dastur 1968-yil e'lon qilindi va 1970-yildan amaliyotga joriy etila boshladi.

Mahalliy xalq vakillari orasidan 50-yillarda ilk bor chet tillar bo'yicha fan nomzodlari yetishib chiqdilar. 60-80-yillarda chet tillar o'qitish metodikasidan fan nomzodligiga ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ximoya qildilar. 70-90-yillar davomida german va roman filologiyasi sohasida doktorlik dissertatsiyasini yoqladilar.

Tilshunos va metodist olimlar o'qituvchilar bilan hamkorlikda o'quv qo'llanmalarini tuzishga kirishdilar. 60-80 yillarda yaratilgan o'quv metodik adabiyotlar o'sha davr mafkurasini aks ettirgan bo'lib, tili o'rganilayotgan mamlakatlar hayotiga oid axborotlarni o'rgatishga qaratilgan emas edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublikamizda ta'lim tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishga kata e'tibor qaratgan. Shuning uchun xam umumta'lim dasturlarini maktabgacha tarbiya, boshlang'ich, umumiy ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim tarzida tuzsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birinchi: maktabgacha ta'lim uch yoshdan boshlanib, olti yeti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulkchilik ko'rinishidan qat'iy nazar, boshqa xil ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

Ikkinchi: Boshlang'ich ta'lim. 1-4 sinflarni o'z ichiga oladi va bunda o'qish olti yeti yoshdan boshlanadi.

Uchinchi: Umumiy Ta'lim. Bunda o'quvchilarga 5-9 sinflar doirasida bilim va tarbiya beriladi.

Aloxida takidlab o'tishimiz kerak: Umumta'lim maktabi barchamiz uchun majburiy bo'lib, ularda bolalarimizga umumiy bilim asoslarini chuqur o'rgatishimiz kerak, tom manoda farzandlarimizning dunyoqarashini shakllantirishimiz va kengaytirishimizga asos solishimiz kerak.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim soxasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi. Ta'lim sohasini, ayniqsa, chet tillar ta'limini rivojlantirish yo'lida juda ko'p islohotlar amalga oshirilmoqda. „Ta'lim to'g'risidagi qonun“, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“, „Davlat ta'lim standartlari“ning qayta ko'rib chiqilishi va takomillashtirilishi ushbu jarayonlardagi eng muxum bosqich sifatida xarakterlanadi. Bu xujjatlar chet til ta'limi oldiga ham qator talablar qo'ydi. Shu asosda chet til o'qitish dastur va darsliklari ham yangilandi. Chet til o'qitishga yangi metodlar kirib keldi. Chet til o'qitishning ilg'or texnologiyalari amaliyotga tadbiq qilindi.

Chet tilni masofadan turib o'qitish rivojlanib borsada , chet tillarni o'qitilishi bilan bog'liq bir qator muammolar ham yuzaga keldi. Buning sababi shundaki, ta'lim jarayoniga bir qator yangi zamonaviy texnologiyalar kirib keldi va kirib kelmoqda, hozirgi kunda aynan shu texnologiyalardan chet tilni o'qitish jarayonida foydalanishni biluvchi malakali o'qituvchilarga talab kattadir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-xunar kollejlaridagi o'qituvchi muallimlar chet tillarni o'quvchilar ongiga oson singdirib beradigan metodlardan foydalanilmoqda.

BMIda chet tilni masofadan turib o'qitish haqidagi mavjud nazariy bilimlarga asoslanib, chet til ta'limiga kirib kelgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish nazariy jihatdan tahlil qilindi va amalda sinab ko'rishga taklif etildi.

ADABIYOTLAR: (muqaddam)

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. –T., O'zbekiston, 2009
 2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik uslohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivijlantirish kontsepsiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 2010
 3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. „Ishonch“ gaz., 2010 yil 8-dekabr.
 4. Karimov I.A. O'zbekiston respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi so'zi. „O'zbekiston ovozi“ gaz., 2010 yil 1- sentabr
 5. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – „Xalq so'zi“, 2011 yil 22 yanvar
 6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent, Ma'naviyat, 2008
-
1. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”: 1997 йил. 29 август. Олий таълим меъёрий хужжатлар тўплами. – Т.: Шарқ, 1997. – 17 б.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997 йил. 29 август. Олий таълим меъёрий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Шарқ, 2001. – 3 б.
 3. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. – Т.: Шарқ, 1999, 5-махсус сон. – 480 б.
 4. Концепция непрерывного образования по иностранному языку // Учитель Узбекистана. – Ташкент, 1993. – №26. 28 июля – 3 августа.
 5. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси: Чет тиллар олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 368 б.
 6. Жуманиёзов О., Аллаёрова Р., Исмоилова Х. Deutsch: Олий ўқув юртлари учун олмон тилидан қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 262 б.
 7. Илиева Л.К. Олий ва ўрта мактаб чет тил таълимида изчиллик ҳақида// Таълим муаммолари, илмий-услубий ютуқлар ва илғор тажрибалар. – 1997. – 3-6 сон. – Б. 18-20.
 8. Chet til o'qitish metodlari/ G.Neuner, H.Hunfeld. Nemis tilidan S.Saidaliyev tarjiması. – Namangan: NamDU, 2005. – 240 b.
 9. Saidaliyev S. Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan: NamDU, 2004. – 238 b.
 10. Neuner G., Hunfeld H. Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts: – Berlin, München: Langenscheidt, 1997. – 184 S.
- A Umarova . O'yin musobaqa darsi “ Boshlang'ich ta'lim -1992, 1-son , 48-bet.”

- Bopp, M. (2007). Storytelling as a Motivational Tool in Digital Learning Games (pp. 261-279). In: Hug, T. (Elektron darslik.) *Didactics of Microlearning*. Münster: Waxmann.
- Brezinka, W. (1995). *Der Gegenstand der Erziehungswissenschaft und die Aufgabe der erziehungswissenschaftlichen Forschung*. In: Brezinka, W.: Erziehungsziele, Erziehungsmittel, Erziehungserfolg. Beiträge zu einem System der Erziehungswissenschaft. München: Reinhardt (Gesammelte Schriften / Wolfgang Brezinka, Bd. 5), S. 15–42.
- Klimmt, C. & Vorderer, P. (2002): *Lara ist mein MElektron darslikium. Parasoziale Interaktionen mit Lara Croft im Vergleich zur Lieblingsfigur aus Film und Fernsehen*. In: P. Rössler, S. Kubisch & V. Gehrau (Hrsg.): *Empirische Perspektiven der Rezeptionsforschung* (pp. 177–192). München: Reinhard Fischer.
- Meisel, M. (2008). *Digitale Lernspiele* Vdm Verlag Dr. Müller
- Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. М.: Просвещение, 1991 – 222 с.
- Методика обучения иностранным языкам в средней школе. Гез Н.И. и др. М.: Высшая школа, 1982 – 373 с.
- Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иностранному обучению – М.: Русский язык , 1989 – 276 с.
- Рогова Г.В. и др. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. М.: Просвещение, 1991 – 287 с.
- Митрофанова О.Д., Костомаров В.Т. и др. Методика преподавания русского языка как иностранного. М.: Русский язык, 1990.

- Пассов Е.И. Урок иностранного языка в средней школе. М.: Просвещение, 1988 - 223 с.
- Рогова Г.В. и др. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. М.: Просвещение, 1991 - 287 с.
- Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. М.: Смысл, 1999 - 287с.
- Neuner, Gerhard. /Hufeld, H.Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts. Fernstudienprojekt. Munchen, 2001
- Dieling, Helga / Hirschfeld Ursula: Phonetik lehren und lernen. Fernstudienprojekt. Munchen 2000
- Bohn, Rainer: Probleme der Wortschatzarbeit. Fernstudienprojekt. Muenchen 2000
- Dahlhaus, Barbara: Fertigkeit Horen. Fernstudienprojekt. Munchen 1998
- Neuf-Munkel, Gabriele/ Roland, Regine: Fertigkeit Sprechen. Fernstudienprojekt. Munchen 1999
- Westhoff, Gerhard: Fertigkeit Schreiben. Fernstudienprojekt. Munchen 2001
- Kast, Bernd: Fertigkeit Lesen. Fernstudienprojekt. Munchen 2001
- Bimmel, Peter u a.: Arbeit mit Lehrwerkheftungen/ Fernstudienprojekt. Munchen 1998
- Klippin, Karin: Fehler und Fehlerkorrektur. Fernstudienprojekt. Munchen 2001.